

B.B.OCHILOV, J.R.HOSHIMOV, J.I.BUTAYEV

**IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI
JALB ETISHDA MAMLAKAT INVESTITSION
JOZIBADORLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT**

MONOGRAFIYA



Toshkent-2024

**IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA MAMLAKAT
INVESTITSION JOZIBADORLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o‘g‘li,
Butayev Javlonbek Inatillo o‘g‘li**

**IQTISODIYOTGA XORIJIY
INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA
MAMLAKAT INVESTITSION
JOZIBADORLIGI: NAZARIYA VA
AMALIYOT
(Monografiya)**

**“ILM-MA’RIFAT” nashriyoti
TOSHKENT 2024**

UO‘K 339.727.22(575.1)

KBK 65.268

O-95

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligi: nazariya va amaliyot: Monografiya. B.B. Ochilov, J.R. Hoshimov, J.I. Butayev. – T.: “Ilm-ma’rifat” nashriyoti, 2024. – 162 b.

Monografiyada investitsion muhit jozibadorligi talqinida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy holati va tendensiyalari, O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ko‘lami va oqimini oshirishning konseptual jihatlari, mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni yanada yaxshilashning xorij tajribalari hamda hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish istiqbollari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda xorij tajribasi o‘rganilgan bo‘lib, uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Monografiya talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim va mustaqil izlanuvchilar, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarining pedagog-xodimlar va amaliyotchi-mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy kengashi tomonidan 2024-yil 29 fevral kuni № 7/6.3(1) tartib raqamli qaror asosida nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

P. Qorayev – PhD. dots.

S. Omonov – PhD.

ISBN 978-9943-6088-8-7

© B.B. Ochilov, 2024

© “Ilm-ma’rifat” nashriyoti, 2024

MUNDARIJA

Kirish		4
I BOB	MAMLAKATGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1.	Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning obyektiv zarurligi hamda uning mazmun-mohiyati.....	7
1.2.	Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsion jozibadorlik muhitini yaratishning ahamiyati.....	28
II BOB	O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	44
2.1.	Investitsion muhit jozibadorligi talqinida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy holati va tendensiyalari.....	44
2.2.	O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ko‘lami va oqimini oshirishning konseptual jihatlari	71
2.3.	Mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili (<i>Qurilish sanoat korxonalari misolida</i>).....	91
III BOB	INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH BORASIDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARDAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	117
3.1.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni yanada yaxshilashning xorij tajribalari.....	117
3.2.	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘nalishlari....	133
	Xulosa.....	142
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	149

KIRISH

Ushbu monografiyada xalqaro valyuta fondi saytida berilgan ma'lumotlarga asosan yozilgan xorijiy maqoladagi ma'lumotlariga ko'ra "Investitsiyalar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. O'tgan chorak asr butun dunyo bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining sezilarli o'sishiga guvoh bo'ldi. Buning sababi shundaki, ko'pgina mamlakatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'zlarining umumiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim elementi sifatida ko'rishadi"¹. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ikkita asosiy yo'nalishda hissa qo'shadi. Biz nafaqat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, balkim uni o'zlashtira olish ham muhimligini Kosovoga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muvaffaqiyatsizligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun bugungi kunda bu mavzuni o'rganish va izlanishlar olib borish zamon talablaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlari va tahlillari shuni ko'rsatadiki, global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2021-yilning birinchi yarmida qayta ko'tarilib, 870 milliard AQSH dollarini tashkil etib, pandemiyadan oldingi darajadan 43 foizga va 2020-yilning ikkinchi yarmidagidan ikki baravar ko'proq oshib ketdi. OECD hududida, OECD davlatlarining aksariyatida sezilarli o'sish natijasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi 421 milliard AQSh dollarigacha o'sdi, bu 2020-yilning ikkinchi yarmidagi darajadan ikki baravar ko'p. Xitoy butun dunyo bo'ylab asosiy to'g'ridan-

¹ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy saytida 2022-yil 16-may tahliliy maqola - Foreign direct investments and economic growth.

to'g'ri investitsiya oluvchisi bo'ldi, undan keyin AQSh va Buyuk Britaniya².

Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilanishi iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar faol kirib kelishining asosiy faktorlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiya, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlat iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar 2020-yilda 210 195,1 mlrd so'm, 2021-yil yanvar-sentyabr oylarida esa 163 933,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib bundan chet el investitsiyalari va kreditlari O'z navbatida 42.7 foiz va 41.9 foiz ni tashkil etadi³. O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturida 2021-2023 yillarda 928,3 trln so'm miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, jumladan, 37,5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilish nazarda tutilgan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-son "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2021-yil 13-iyuldagi investitsiyalar to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 437-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini

² Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish xalqaro tashkiloti rasmiy sayti ma'lumotlari. //manba: <https://www.oecd.org/investment/statistics.htm>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining sayti ma'lumotlari //manba: www.stat.uz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-son "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" Qarori.

yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son va “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-son Farmonlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Shuningdek, monografiyada nazariy qarashlarni yanada oydinlashtirishga xizmat qiladigan chizmalar, infografika, qiyosiy hamda statistika jadvallar berilgan.

I BOB. MAMLAKATGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning obyektiv zarurligi hamda uning mazmun-mohiyati

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali tashkil etish va rivojlantirishda esa investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Chunki ma'lum bir mamlakatda investitsiya siyosati to'g'ri yo'lga qo'yilgan, investitsiya muhiti yaxshi yaratilgan bo'lsa, mazkur mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi, biroq teskarisi bo'ladigan bo'lsa pasayishi ham muqarrardir.

Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy jivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keyingi yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog'liq.

Barchamizga ma'lum, islohotlar va yangilanishlar o'z-o'zicha amaliyotga tadbiq qilinganda oxirgi, ya'ni yakuniy samara kutilganidek bo'lmasligi yoki kutilgan natijaga keyinroq erishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun, yangi iqtisodiy tizim va munosabatlarning qaror topishida barcha tarmoqlar kerakli darajada hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlab boriladi, bu olib borilayotgan islohotlarning samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor

iqtisodiyotiga o‘tishida o‘ziga xos turtki bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishni tartibga solish borasida ko‘plab yangi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Investitsiya – takror ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘sish sifatining moliyaviy manbayi, ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanishini belgilovchi omildir. Investitsiya fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga joriy qilishni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini ta’minlaydi. U aholi turmush darajasi va sifatini to‘xtovsiz oshirib borishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Xorijiy hamda mahalliy mualliflarning iqtisodiy adabiyotlarida, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida “investitsiya” atamasi turlicha talqin etiladi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Iqtisodiy adabiyotlar va qonun hujjatlarida investitsiya mazmuniga oid qarashlar⁵

№	Muallif	“Investitsiya” atamasiga berilgan ta’rif
1	O‘z.R.ning 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ 598-sonli Qonuni	Investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar.

⁵ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

2	A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminov	Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar.
3	D. G'ozibekov	Aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi.
4	N.H. Haydarov	Investitsiya – mulk shaklidan qat'iy nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir.
5	L. Igoshina	Investitsiyalar – pulni saqlash, ko'paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta'minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo'lgan har qanday vosita sifatida ifodalaniladi.
6	A. Neshitoy	Foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir.
7	U. Sharp	Investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir.

Shunday qilib, “investitsiya” deganda kelgusida daromad (foйда) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida

iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko'rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq belgi berishlik uchun anchagina keng tushuncha bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zaxiralarining o'sishiga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Investitsiyalar – joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YaIMning bir qismidir.

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya'ni bugungi sarflarni maqsadi kelajakda daromad olish bo'lib hisoblanadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, investitsiyalar – muayyan qiymatni, bo'lishi noaniqroq bo'lgan kelajak qiymatga almashishdir.

Hozirgi vaqtda investitsiyalarni korxona faoliyati amalga oshirsa ham, oshirmasa ham bo'ladigan "ixtiyoriy" shakli sifatida qaramaslik kerak. Investitsiya faoliyatini amalga oshirmaslik raqobat sharoitida yo'qotishlarga olib keladi. Shu sababli, barcha ehtimolli investitsiyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

✓ passiv investitsiyalar, ya'ni eski texnologiyani yangilash, yangi xodimni tayyorlash va boshqa shu kabilar hisobiga korxonaning

foydalilik ko'rsatkichlari hech bo'lmaganda yomonlashmasligini ta'minlaydigan investitsiyalar;

✓ aktiv investitsiyalar, ya'ni yangi texnologiyani qo'llash, talabgor tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarni egallash hisobiga firmaning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan investitsiyalar.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlardan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari investitsiyalar ham bir qator guruhlarga bo'linishi mumkin.

Ichki investitsiyalar, odatda, o'z ishtirokini kengaytirish yoki mahalliy iqtisodiyotning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun tashqi bozorlarga sarmoya kiritadigan transmilliy korporatsiyalardan keladi. Bu mahsulotga bo'lgan yangi talab yoki mintaqaning jadal rivojlanishi shaklida bo'lishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarning keng tarqalgan turi bu – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar). Bu bir kompaniya boshqa biznesni sotib olganda yoki o'z mamlakatidan boshqa mamlakatda mavjud biznes uchun yangi operatsiyalarni ochganda sodir bo'ladi.

Ichki yoki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'pincha katta miqdordagi qo'shilish va sotib olishga olib keladi. Yangi korxonalarni yaratish o'rniga, ichki investitsiyalar ko'pincha xorijiy kompaniya mavjud kompaniyani sotib olganda yoki ular bilan birlashganda sodir bo'ladi. Ichki investitsiyalar kompaniyalarning o'sishiga yordam beradi va xalqaro integratsiya uchun chegaralarni ochadi.

O'zbekiston Respublikasida strategik kontekstida makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosib iqtisodiy o'sish sifatini ta'minlashda muvozanatli hududiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sifatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi (1.2-jadval).

Investitsiyalar tasnifi⁶

№	Investitsiya mezonlari	Investitsiya turlari
1	Qo'yilish obyektiga ko'ra:	real investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar
2	Investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra:	to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar portfel investitsiyalar
3	Takror ishlab chiqarish hajmining kengligiga ko'ra:	yalpi investitsiyalar sof investitsiyalar
4	Investitsiyalash davriga ko'ra:	qisqa muddatli investitsiyalar uzoq muddatli investitsiyalar
5	Mulkchilik shakliga ko'ra:	xususiy investitsiyalar davlat investitsiyalari aralash investitsiyalar xorijiy investitsiyalar
6	Hududiy joylashtirilishiga ko'ra:	ichki investitsiyalar tashqi investitsiyalar
7	Kapitalni ishlatish xarakteriga ko'ra:	birlamchi investitsiyalar reinvestitsiyalar dezinvestitsiyalar
8	Maqsadlari va ular bilan bog'liq xatarlarga ko'ra:	venchurli investitsiyalar bevosita investitsiyalar portfel investitsiyalar annuitet investitsiyalar
9	Moliyalashtirish manbasiga ko'ra:	markazlashgan investitsiyalar markazlashmagan investitsiyalar.

⁶ Zoyirov L.S., Asamxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya., darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019, 13 b.

Hozirgi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi assimetrik tafovutning mavjudligi, mavjud iqtisodiy-resurs salohiyatdan unumli foydalanish va nisbatan past darajada rivojlangan hududlarda iqtisodiy rivojlantirishni jonlantirishga qaratilgan faol hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishni taqozo qiladi. Bunda hududiy moliyaviy-investitsion salohiyatni to'g'ri baholash va boshqarish negizida investitsion faollikni yanada jonlantirish bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirish talab qilinmoqda.

Siyosatning institutsional vositalari, odatda, investorlar o'zaro va davlat dasturlari o'rtasida investitsiya qarorlarini muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratishdan iborat. Ushbu mexanizmlarning aniq shakllari ko'lam juda keng eksport sohalarida davlat tomonidan tashkil qilinayotgan qo'shma korxonalardan to siyosiy va norasmiy aloqalar-gacha.

Davlatning investitsiya siyosati – mamlakat iqtisodiyoti va uning alohida sohalariga kapital qo'yilmalarining zarur darajasi va tuzilmasini ta'minlash, aholi, tadbirkorlar va davlat kabi takror ishlab chiqarish faoliyatining asosiy agentlarining investitsiya faolligini oshirish bo'yicha maqsad va chora-tadbirlar majmuasidir. Sodda qilib aytganda, investitsiya siyosati bu – davlatning investitsiya manbalarini topishga va ulardan samarali foydalanish sohalarini aniqlashga qaratilgan faoliyati.

Davlat investitsiya siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat⁷:

- ✓ iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni ta'minlash;
- ✓ tadbirkorlik va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish;
- ✓ qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;
- ✓ turli manbalardan investitsiya resurslarini, shu hisobda chet el investitsiyalarini jalb qilish;

⁷ Sobirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T., 2009.

✓ investitsiya maqsadlari uchun aholi pul omonatlarini jamg'arish uchun nodavlat tuzilmalarining tashkil qilinishini rag'batlantirish;

✓ ipoteka kreditlarini rivojlantirish uchun huquqiy sharoit va kafolatlarini tashkil qilish;

✓ investitsiya faoliyatida lizingni rivojlantirish;

✓ kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;


✓ investitsiya jarayonini amalga oshirishda imtiyozlar va sanksiyalar tizimini takomillashtirish;

✓ venchur investitsiyalashning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish.

Respublikada investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan tartibga solish barcha tashkiliy tuzilmalarning samarali o'zaro munosabatini va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning sifatli monitoringini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita investitsiya muhitiga bog'liq. Shu sababli mazkur iqtisodiy atamaning tub mohiyatini o'rganish, yoritish va asoslab berishga bo'lgan turli iqtisodchi olimlarning qarashlari va o'ziga xos yondashuvlari orqali o'zaro ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, bu o'z navbatida, investitsiyalarga oid chuqurroq bilimga ega bo'luvchilar e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi.

Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni bilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, birinchi navbatda, mamlakatda investitsiya jarayonini faollashtirish va ilmiy asoslangan investitsiya siyosatini ishlab chiqish uchun muhimdir. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni ularning ta'sir doirasidan kelib chiqib, ikki katta guruhga ajratish mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar⁸

Ushbu omillar ro'yxatini ko'radigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular, nafaqat, investitsiya faoliyatiga, shu bilan birga, mamlakatning butun iqtisodiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mavjud salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiyalar kiritish sur'atlariga bog'liq bo'ladi. Shunga erishish kerakki, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari investitsiya qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi lozim. Inflyatsiya investitsiya faoliyatiga eng faol ta'sir etuvchi omil bo'lib, o'z navbatida, iqtisodiyotning holatiga ham bog'liq bo'lib, iqtisodiyot barqarorlashganda va rivojlanganda ushbu ko'rsatkich darajasi pasayib boradi. Bu o'rinda shuni hisobga olish kerakki, inflyatsiya jarayonlari bilan bank krediti foiz stavkasi chambarchas bog'liq bo'ladi. Agar bank

⁸ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

foiz stavkasi yuqori bo'lsa, investitsiyaga talab shuncha kamayadi. Mamlakat iqtisodiyotining holati, uning rivojlanishi davlatning va barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashning asosiy omili bo'lib, investitsiya jarayonlarini faollashtiradi (1.2-rasm).



- soliq tizimining takomillashganlik darajasi;
- investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy ta'minoti;
- investitsiya faoliyatida davlat ishtirokining darajasi;
- moliya-kredit siyosatining takomillashganlik darajasi;
- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holati va dinammikasi;
- alohida hudud, tarmoqlarni rivojlantirishga bo'lgan davlat e'tiborining ustuvorligi;
- iqtisodiyotda davlat sektorining tutgan o'rni.



- korxonalar ko'lami va moliyaviy holati;
- amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini qo'llash;
- korxonalarning ilmiy-texnik siyosati;
- korxonalarning investitsiya siyosati;
- xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli va boshqalar.

1.2-rasm. Investitsiya faoliyatiga makro va mikrodarajada ta'sir etuvchi omillar⁹

⁹ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.


Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mavjud salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiyalar kiritish sur'atlariga bog'liq bo'ladi. Shunga erishish kerakki, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari investitsiya qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi lozim. Inflyatsiya investitsiya faoliyatiga eng faol ta'sir etuvchi omil, o'z navbatida, iqtisodiyotning holatiga ham bog'liq bo'lib, iqtisodiyot barqarorlashganda va rivojlanganda ushbu ko'rsatkich darajasi pasayib boradi. Bu o'rinda shuni hisobga olish kerakki, inflyatsiya jarayonlari bilan bank krediti foiz stavkasi chambarchas bog'liq bo'ladi. Agar bank foiz stavkasi yuqori bo'lsa, investitsiyaga talab shuncha kamayadi. Bunday bog'liqlik investitsiyalarga talab bilan kutilayotgan foyda me'yorida ham mavjud bo'ladi. Bir vaqtning o'zida sof foyda me'yori bank foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, mamlakatda investitsiya qo'yimlari hajmi oshishi kuzatiladi, aksincha bo'lsa, kamayadi. Investitsiya faoliyatini jonlantirishda kuchli ta'sir doirasiga ega bo'lgan navbatdagi omil soliq tizimi va uning takomillashtirish darajasi hisoblanadi.

O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to'lovchilarni ularning xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish bilan bir vaqtda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Investitsiya faoliyati rivojiga mamlakatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, har qanday davlat iqtisodiyoti mazkur soha rivojisiz me'yorida faoliyat ko'rsata olmaydi. Investitsiya faoliyati rivojiga davlat ishtiroki darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat, nafaqat, investitsiya siyosatini ishlab chiqish zarur, balki ushbu jarayonda faol ishtirok etishi ham kerak. Ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas

bog‘liq bo‘lib, makrodarajadagi omillar yuqori ta’sir xususiyatiga ega hisoblanadi (1.3-rasm).

Bunda ular budjetni rejalashtirish jarayonida unga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini aniqlashlari va qat’iy nazorat qilmog‘i lozim. Mamlakatimizda bu vaziyatni ijobiy baholash mumkin, jumladan, maqsadli va samarali investitsiya siyosatining olib borilishi, davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini alohida qayd etish joiz. Yuqorida ko‘rib chiqilgan omillar investitsiya faoliyati rivojiga, nafaqat, makro, balki mikrodarajada ham faol ta’sir ko‘rsatadi.



1.3-rasm. Makrodarajadagi investitsiya faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar¹⁰

Investitsiya faoliyatiga ta’sir etuvchi barcha omillarni tizimlashtirish maqsadida ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1) makrodarajada investitsion faoliyatga ta’sir ko‘rsatadigan omillar;

¹⁰ Iqtisodiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

2) hududiy jihatdan investitsion faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan omillar;

3) tarmoq darajasida investitsion faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan omillar;

4) mikrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Iqtisodiy omillarga quyidagilarni keltirish mumkin:

✓ milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi YaIM, milliy daromad (MD);

✓ mamlakatning iqtisodiy siyosati;

✓ inflyatsiya darajasi;

✓ kredit bo'yicha foiz stavkasi;

✓ investitsiya risklari;

✓ milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyalashuv darajasi;

✓ fond bozorining rivojlanganlik darajasi va boshqalar.

Mamlakatning iqtisodiy siyosati omili keng tarmoqli bo'lib, investitsiya, soliq, amortizatsiya, moliya-kredit, innovatsiya va boshqa siyosatlardan tashkil topgan, biroq ularning har biri investitsiya faoliyatiga o'zi alohida ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy omillar turli xil bo'lib, ular investitsiya faoliyati sohasidagi qonunchilik bazasining sifati va barqarorligini, mulk huquqlarining himoya qilinishini, investorlar manfaatlarining himoya qilishni, monopollashtirish, huquqiy tartib va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy omillar quyidagilardir:

✓ mamlakatdagi ijtimoiy vaziyat;

✓ aholi turmush darajasi;

✓ mamlakatdagi demografik holat;

✓ aholining savodxonlik darajasi;

✓ o'rtacha umr ko'rish davomiyligi;

✓ ishsizlik darajasi va boshqalar.

Siyosiy omillar quyidagilardir:

✓ mamlakatdagi siyosiy vaziyat;

- ✓ dunyodagi va O‘zbekiston bilan chegaradosh mamlakatlardagi siyosiy vaziyat;
- ✓ xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro munosabatlar va boshqalar.

Ma‘muriy omillar-investitsion loyihalar va biznesni amalga oshirishda turli darajadagi mansabdor shaxslarning har qadai to‘siqlari. Hududiy va mikrodarajada investitsiya faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin (1.3-jadval).

1.3-jadval

Investitsiya faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar¹¹

Hududiy jihatdan ta‘sir ko‘rsatadigan omillar	Mikrodarajada ta‘sir ko‘rsatadigan omillar
Hududning sanoatlashganlik darajasi	Tijorat tashkilotlarining boshqaruv darajasi
Hududning investitsion jozibadorligi	Mahsulot sifati va raqobatbardoshligi
Hududning tarixiy ahamiyati	Asosiy vositalarning jismoniy va ma‘naviy eskirish darajasi
Hududdagi investitsion siyosatning samaradorligi	Tijorat tashkilotining rivojlanish istiqbollari
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun hududda yaratilgan shart-sharoit	Tijorat tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy holati
Hududiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi	Tijorat tashkilotlarining iqtisodiy va investitsiya siyosatida ilmiy tadqiqotlarning o‘rni
Hududning investitsion risk darajasi	Tijorat tashkilotining imidji
Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligi	Tijorat tashkilotlarining investitsion jozibadorligi

Investitsiya faoliyatiga ta‘sir qiluvchi barcha omillarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

¹¹ Zoyirov L.S., Asamxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya., darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 77 b.

✓ investitsion faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan – ijobiy omillar;

✓ investitsiya faoliyati salbiy ta'sir ko'rsatadigan – salbiy omillar.

Vujudga kelishiga qarab, investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha omillar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

a) obyektiv, ya'ni vujudga kelishi inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan omillar:

b) subyektiv, ya'ni ta'siri va kelib chiqishi inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillar.

Bu omillarning barchasi makrodarajada nafaqat investitsiya faoliyatiga, balki investitsiyaviy jozibadorlikka va investitsiya faoliyati samaradorligiga ham ta'sir qiladi.

O'zbekiston hududlarida investitsiya faoliyati butun milliy iqtisodiyot shakllanishi uchun muhimdir. Mazkur iboraning tasdig'i sifatida respublikada barqaror iqtisodiy o'sishning zarur sharti sifatida hukumat tomonidan aynan hududiy investitsiya siyosatini olib borish ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida hududiy iqtisodiy birlik sifatida hududlarning salohiyati ancha oshdi.

Hammaga ma'lumki, har bir mamlakatning barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligining muhim sharti alohida hududlar va butun mamlakatning ichki va tashqi konyukturalar o'zgarishiga tez moslasha olishidir.

Shu bilan birga, investitsiya siyosatining hududiy o'zgarishi muhimligi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq.

Hududlar salohiyati ancha yuqori bo'lgan O'zbekiston sharoitida innovatsiya faoliyatini rivojlantirish sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin. Shuning uchun, hududlarning investitsiya strategiyasi mexanizmini ishlab chiqishga zaruriyat paydo bo'ldi. Iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va xo'jalik mexanizmlarining yetarlicha keng taniqliligi va nisbatan tadqiq etilganligiga qaramasdan "mexanizm" tushunchasi


yetarlicha aniq tavsiflanmagan. Ushbu aniqsizlik hududiy boshqaruv mexanizmlariga nisbatan kuchayadi.

Hududiy investitsiya strategiyasini boshqarish va amalga oshirish mexanizmi o'z ichiga quyidagi tarkibiy elementlarni oladi:

- ✓ Boshqarish mezonlariga o'zgartirilgan boshqarish maqsadlari;
- ✓ Boshqarish omillari;
- ✓ Omillarga ta'sir qilish uslublari;
- ✓ Boshqarish resurslari.


Shuni ta'kidlash joizki, hududiy investitsiya strategiyasini boshqarish mexanizmi uning investitsiya tizimining qismidir va u o'z ichiga investitsiya obyektlari va subyektlarini oladi. Shunday qilib, hududiy investitsiya strategiyasini boshqarish mexanizmining mohiyati bu – respublika va hududiy belgilangan investitsion rivojlanish maqsadlariga erishish uchun hudud investitsiya tizimining barcha subyektlariga maqsadli ta'sir qilishdir (1.4-rasm).

Shuning uchun, mexanizm o'z navbatida investitsiya munosabatlarining obyektlari va subyektlaridan iborat emas, ammo uning tarkibi investitsiya tizimining barcha tarkibiy elementlarining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Investitsiyalar turlari va ularni amalga oshirish shartlarining xilma-xilligini hisobga olib, investitsiyalar tuzilmasi quyidagi mezonlarga ko'ra belgilanadi. Investitsiyalarning funksional tuzilmasi olimlarning fikriga ko'ra investitsiyalar tovarlar ishlab chiqaradigan va xizmat ko'rsatish sohalariga bo'linadi. Bunda xizmatlarni ishlab chiqarishga qo'yilmalar ulushi o'sish tendensiyasiga ega hamda YaIM tuzilmasida o'zgarishlarni aks ettiradi (1.5-rasm).



1.4-rasm. Investitsiya mexanizmini shakllaktirishda hokimyatning o‘rni¹²

¹² <https://www.kbncran.ru/wp-content/uploads/2020/01/Gal-15.pdf>



1.5-rasm. Investitsiyalarning funksional tuzilmasi¹³

Hududiy investitsiya strategiyasini boshqarish mexanizmi shakllanishining asosiy boshlanishi bo'lib, boshqarishning aniq subyektlari va obyektlari xizmat qiladi. Hududiy hukumat boshqaruv organlarining ta'sir qilish obyektlari hududiy investitsiya strategiyasi shakllanishi jarayonida belgilangan strategik maqsadlar tizimi bilan aniqlanadi.

Har xil mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, investitsiyalarni jalb qilish uchun hukumatlar turli tashkiliy mexanizmlardan foydalanishadi. Ba'zi davlatlarda ushbu vazifani vazirlik va idoralar muvaffaqiyatli bajarishmoqda, boshqalarda esa ushbu maqsadlar uchun maxsus muassasalar tashkil etiladi.

¹³ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Investitsiya strategiyasini boshqarish mexanizmining tarkibiy qismlari ko'p bosqichlar, ya'ni respublika va hududiy darajaga ega.

Bizning fikrimizcha, investitsiyalarning funksional tuzilmasiga muvofiq barcha mablag'larni o'z ichiga olishi zarur. Bunda ularni qayta ishlab chiqarish tuzilmasini, texnologik, mulk shakllarini, tarmoqlarini mintaqaviy va hududiy, moliyaviy, iqtisodiy, moliyalashtirish manbalari va jamg'arma qo'yilmalari hududiy tuzilmasini o'z ichiga olishi zarur. Mana shu holda investitsiyalarning funksional tuzilmasi to'liq shakllangan bo'ladi. Bu tuzilmaning to'g'ri tashkil etilishi banklarning investitsiya portfelinining to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.


Hozirda xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha Qozog'iston Respublikasi ham ancha ildam qadamlab ketdi. Shu sababli, xorijiy investorlarning nima sababdan ularga qiziqishi ortayotganini o'rgandik.

Mamlakat taraqqiyotining xuddi shunday uzoq muddatli maqsadlari asosida o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan aniq strategiyalarni, hududlar va tarmoqlar bo'yicha strategiyalarni, shuningdek, rivojlanishning muayyan maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan maqsadli strategiyalarni ishlab chiqishga oid harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lib, ularning amalga oshirilishi istiqboldagi strategik maqsadlarga erishish uchun zarur.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha har bir davlatning o'z tanlagan yo'li va strategiyalari mavjud. O'z imkoniyatlaridan va mavjud sharoitlardan kelib chiqib davlatlar o'zlari uchun mos yo'llarni tanlaydilar. Hududiy investitsiya strategiyasini boshqarish mexanizmining quyida keltirilgan tuzilmasiga muvofiq uning shakllanishi jara-yonining bosqichlarini ma'lum ketma-ketlikda tasavvur etish mumkin (1.6-rasm)¹⁴.

¹⁴ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Ichki investitsiya strategiyasi boshqaruv mexanizmi



1.6-rasm. Hudud investitsiya strategiyasining boshqaruv mexanizmini shakllantirish jarayoni

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni hududlarga jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlarining investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha respublikada olib borilayotgan siyosatini amalga oshirish bilan birga hududning o‘z, mahalliy ichki siyosatini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yirik pul qo‘yilmalari asosan xorijiy investorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini tushungan holda, hududlar tomonidan ularni jalb qilish uchun maksimal darajada jozibador shart-sharoitni yaratishga qaratilmog‘i lozim. Bunda jalb qilishning asosiy instrumentlari bo‘lib quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- ✓ tashqi iqtisodiy, shu jumladan, investitsion munosabatlarni yaratish dasturini ishlab chiqish;
- ✓ aniq loyihalar taqdimotini amalga oshirish va ularni baholash uchun maxsus axborot-konsalting guruhlar va agentliklariga taqdim etish;
- ✓ hamkorlik to‘g‘risidagi boshlang‘ich bitimlar, memorandumlarni tuzish;
- ✓ maxsus ma’lumotlar bankini yaratish;
- ✓ investorlarga va alohida loyihalarga maxsus imtiyoz va preferensiyalar berish va b.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlari o‘sishini ta’minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish hamda bank-moliya faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlarga erishilmoqda.

1.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsion jozibadorlik muhitini yaratishning ahamiyati

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Tartibga solish (iqtisodiy) – iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo‘nalishlarini aniqlash, yo‘lga qo‘yish va ma’lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo‘naltirilgan harakat.

O‘zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosatining natijasi mamlakat investitsiya faoliyatining rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli har qanday investitsiya siyosatining maqsadi investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad o‘zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini ham mujassam etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solinishi zarur bo‘ladi.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi,

Mehnat kodeksi, Yer kodeksi, Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi va boshqa qonun hujjatlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”¹⁵ ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasi 2022-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga bag‘ishlanib, maqsadlarning uchinchi yirik guruhi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash” deb nomlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, shu bilan bir qatorda 26-maqsad: “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish” deb belgilangan. Xususan:

- ✓ investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish;

- ✓ 2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish;

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

✓ davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sogʻliqni saqlash, taʼlim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xoʻjaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish;

✓ respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari oʻrtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni oʻrnatish, jumladan, Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish;

✓ Surxondaryo viloyatida “Investorlarga koʻmak markazi”, Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Biznesga koʻmaklashish markazi” va Toshkent shahrida “Ilgʻor loyihalar va injiniring markazi” va har bir tumanda “Innovatsiya va texnologiya markazlari” tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam koʻrsatish;

✓ Toshkent shahrida har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni oʻtkazib borish kabi vazifalar belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi investitsiya faoliyatini tartibga solish uchun barcha zarur qonunchilik bazasini yaratmoqda, jumladan,:

✓ Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”¹⁶gi Qonunining yangi tahriri;

✓ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan va har yili qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturi;

✓ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-aprelda “Toʻgʻridan-toʻgʻri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni

¹⁶ Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹⁷gi qarori;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi “Xorijiy investitsiyalari va kreditlarini jalb qilish va ularni jalb qilish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁸gi PF-927-sonli qarori;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹⁹gi PF-4434-sonli farmoni;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”²⁰gi PF-5495-sonli farmoni va boshqa shu kabilar.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda turli usullar qo‘llaniladi. Birinchi navbatda, davlat quyidagi shakllarda investitsiya faoliyatini tartibga soladi:

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi “Xorijiy investitsiyalari va kreditlarini jalb qilish va ularni jalb qilish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-927-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.01.2019-y., 06/19/5624/2471-son.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4434-sonli farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-sonli farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son

investitsiya faoliyatiga taalluqli qonunlar va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish;

- ✓ davlat investitsiyalarini bevosita boshqarish;
- ✓ davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish;
- ✓ investitsiya faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari.

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 25-dekabr 2019-yilda qabul qilingan bo‘lib, mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi birinchi qonun hujjatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qonun investitsiya resurslari, obyektlar va investitsiya faoliyati subyektlari, investorlarning investitsiya faoliyatidagi huquq va majburiyatlari, davlat tomonidan tartibga solishning bir qismi hisoblanadi.

Ushbu qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi: chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat²¹.

Ushbu Qonun markazlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solmaydi²².

Konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi.

²¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

²² O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta’minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- ✓ investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- ✓ investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalarini va kichik sanoat zonalarini barpo etish;

- ✓ asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish;

- ✓ texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash;

- ✓ raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralarini qo‘llash;

- ✓ yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish, shuningdek, boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida investitsiya faoliyatiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati sub-

yektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuyi”²³.

Investitsiya faoliyati subyektlari (investorlar va investitsiya faoliyati ishtirokchilari) quyidagilar bo‘lishi mumkin²⁴:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari-jismoniy va yuridik shaxslar;

- ✓ davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;

- ✓ chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma’muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko‘rsatadilar. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning qatnashchilaridan biri ushbu qonunga ko‘ra xorijlik investor bo‘lishi shart.

Ikki yoki undan ortiq mahalliy va xorijiy mamlakat subyektlari ishtirokida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, foyda olish maqsadida yuridik shaxs sifatida tashkil etiladigan, mamlakatning qonunchilik talablari asosida tuzilgan xo‘jalik yurituvchi subyektga qo‘shma korxona deyiladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uni ta’sis etish yo‘li bilan yoki ilgari xorijiy investitsiyalar ishtirokisiz ta’sis etilgan

²³ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

korxonada ishtirok etish ulushining (payining, aksiyalarining) yoxud bunday korxona butunlay, shu jumladan, xususiylashtirish jarayonida xorijlik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin (1.4-jadval).

1.4-jadval

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish sabablari²⁵

<i>Ichki sabablar</i>	Investitsiya muhitining ustunliklaridan foydalanish
	Risklarni taqsimlash
	Ishlab chiqarish miqyosida tejash
	Boshqaruvning yangi usullarini o'rganish
	Xorijiy bozorga chiqishni jadallashtirish
	Shartnoma xarajatlarini kamaytirish
<i>Tashqi sabablar</i>	Jahon bozoriga chiqish
	Siyosiy keskinlikning yumshashi
	Milliy hukumat talablari
	Samarali raqobatni vujudga keltirish

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. Ularni tashkil etish va davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirliklar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xorijlik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

²⁵ B. Mamatov, D. Xujamkulov, O. Nurbekov "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". – T.: Iqtisod-moliya, 2014. 608 bet.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning sho‘ba korxonalari, filallari, vakolatxonalari va boshqa alohida bo‘linmalari tashkil etilishi mumkin. Ular ixtiyoriy ravishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, konsorsiumlar va boshqa xo‘jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to‘la huquqli a‘zo sifatida kirishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega: O‘zbekiston hududida, shuningdek, undan tashqarida har qanday valyutada, har qanday bankda hisobvaraqlar ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish; xorijiy valyutada ssudalar olish va uni qaytarish. Ularning hisob varaqlaridagi mablag‘lardan foydalanishni cheklash yoxud mablag‘larni majburiy olish davlat boshqaruv organlari tomonidan faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, ular faoliyati bilab bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim jihatlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi bosqichlar amal qilishini ta’kidlash mumkin: korxonani ochish uchun sherik tanlash; qo‘shma korxona ochish haqida qaror qabul qilish; qo‘shma korxonani ochish va faoliyatini rejalashtirish;

- ikkinchidan, qo‘shma korxonani tashkil etish sabablarini ichki, tashqi va strategik turkumlarga ajratish mumkin;

- uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilishni tahlil qilishda mamlakat, hudud, soha, korxona miqyosidagi xususiyatlarini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o‘z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Kontsessiya shartnomalari – tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o‘zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarni, texnika-texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish. Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Moliyaviy aktivlar – qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Erkin iqtisodiy hudud – ma’lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. Erkin iqtisodiy hududlar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo‘lishi lozim.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati 2020-yil 17-fevralda qabul qilingan 604-sonli “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga muvofiq maxsus iqtisodiy zonalarining quyidagi turlari mavjud:

- ❖ erkin iqtisodiy zonalar;
- ❖ maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- ❖ turistik-rekreatsion zonalar;
- ❖ erkin savdo zonalar;
- ❖ maxsus sanoat zonalar.

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan

tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

Maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to'plangan hudud.

Turistik-rekreatsion zona – unda zamonaviy turistik infratuzilma obyektlarini (mehmonxona komplekslari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turistik ahamiyatdagi obyektlarni), maxsus faoliyat ko'rsatuvchi va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini turistlarga xizmat ko'rsatish maqsadida zarur shart-sharoitlarni ta'minlagan holda barpo etishga doir investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan hudud.

Erkin savdo zonolari konsignatsiya omborlarini, maxsus bojxona va soliq rejimlari bo'lgan hududlarni, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rab-joylash, saralash, saqlash uchun maydonchalarni o'z ichiga oladi.

Erkin savdo zonolari chegara punktlarida, aeroportlarda, temiryo'l bog'lamalarida yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa bojxona hududlarida tashkil etiladi.

Maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonolari zarur ma'muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o'z ichiga oladi.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag‘ kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi sifatida ish yuritishi, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifalarini bajarishi mumkin.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shart-noma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi sifatida ish yuritadi.

Investor – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Mahalliy investorlar – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tushuniladi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

Investitsiya faoliyati ishtirokchisining huquqlari²⁶:

✓ O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmagan investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirishga, investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlarini, turlarini, shakllarini, sohasini va yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga;

✓ o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, shuningdek, investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga;

✓ investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlarni soliqlar, yig‘imlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar to‘langanidan so‘ng mustaqil va erkin tarzda tasarruf etishga;

²⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

✓ o‘zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan, qarz mablag‘larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta’minoti sifatida o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga;

✓ o‘z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda munosib kompensatsiya olishga;

✓ kreditlar va qarzlar tarzidagi pul mablag‘larini jalb etishga;

✓ davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlar uchun tovon olishga haqli.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisining majburiyatlari²⁷:

✓ qonunchilikda belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga, shu jumladan, raqobat to‘g‘risidagi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi, investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi, mehnat to‘g‘risidagi, shaharsozlik to‘g‘risidagi va atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilishi;

✓ shartnomalarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishi;

✓ shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli investorga yetkazilgan zararlarining o‘rnini qoplashi;

✓ davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qo‘yiladigan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya resurslariga quyidagilar kiradi:

✓ pul va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan, kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;

²⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

✓ ko‘char va ko‘chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy qiymatliklar) hamda ularga bo‘lgan huquqlar;

✓ intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi majmuyi, nou-xau;

✓ yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolarga, inshootlarga, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi boshqa ash-yoviy huquqlar;

✓ qonunchilikka muvofiq boshqa resurslar.

Davlatga bosh islohotchi sifatida, mamlakatning umumiy rivojlanish strategiyasining bajarilishi uchun bir qator funksiyalar belgilab berilgan. Davlat hokimiyat organlari iqtisodiy va ma‘muriy usullardan foydalangan holda, mamlakatda investitsion faoliyat va investitsiya jarayonlariga katta e‘tibor beradilar. Davlat zarur hollarda iqtisodiyotning davriy xususiyatiga qarab, qonunlar, reglamentlar, standartlar, talablar yordamida mamlakatdagi investitsion faoliyatni rag‘batlantiradi yoki cheklaydi. Normativ hujjatlar investorlarning huquq va majburiyatlarini hamda huquqlarining himoya choralari kafolatlarini, nizolarni hal qilishni, davlatning investitsion bozorda ishtiroki darajasini va mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini aks ettiradigan umumiy investitsiya siyosatini aks ettiradi.

Investitsiya bozorida davlat:

✓ qonun chiqaruvchi;

✓ tartibga soluvchi;

✓ koordinator;

✓ investor;

✓ investitsiya obyekti sifatida ishtirok etishi mumkin.

Qonunchilikni rivojlanishi, adolatli qonunlar qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq etilishi bozor munosabatlarining rivojlantirishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni keng ko‘lamda tarqalishiga qaratilsa,

investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag‘lari kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlar mablag‘lari o‘sib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va davlatning samarali moliya siyosatini yuritish alohida ahamiyatga egadir. Xorijiy kapitalni kirib kelish darajasi ham mamlakatda olib borilayotgan moliya siyosatiga (fiskal siyosati) bog‘liqdir.

Birinchi bobi iqtisodiyotga ichki investitsiyalarni jalb qilishning nazariy-huquqiy asoslari deb nomlangan. Birinchi rejaga muvofiq investitsiyalarning jalb qilish shakllari, turlari bayon qilingan. Bugungi kunda investitsion faoliyatini boshqarish uning samaradorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmuyi hamda jamg‘arish, investitsiyalash, kapitalizatsiya va foyda olish ko‘rinishida harakatlanuvchi faoliyat investitsiya faoliyati deyiladi. Investitsiya faoliyatining rivojlanishi ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishga, ilmiy texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta‘minlash va uning sifatini oshirishga, ijtimoiy sohalarini yanada rivojlantirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, asosiy fondlarning jismoniy va ma‘naviy eskirishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish, korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini ta‘minlash, qimmatli qo‘g‘ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o‘z mablag‘larini sarflash asosida foyda olish maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Ikkinchi rejada ichki investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb qilish mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan. Investitsiyalarning tarkibi, hajmi, qiymati, sifati va investitsiya faoliyati ishtirokchilari manfaatlari ta‘minlanishi bo‘yicha erishish uchun boshqaruvning zamonaviy usullari, texnika va texnologiyasidan foydalanish yo‘llari, investitsiyalash maqsadlariga samarali erishishga yo‘naltirilgan mehnat, moliyaviy va

moddiy-texnikaviy resurslarni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish usullari keltirilgan.

Uchinchi rejada ichki investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb qilishning huquqiy asoslari, me'yoriy hujjatlari, qarorlari keltirilgan. Shuningdek, investitsiya sohasini tartibga solishda davlatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va qonunosti hujjatlar investitsiya faoliyatining tartibga solinishida muhim turtki bo'lib hisoblanadi.

II BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

2.1. Investitsion muhit jozibadorligi talqinida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy holati va tendensiyalari

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirish tamoyillari ishlab chiqildi. Mazkur tamoyillar asosida mamlakatimizda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi ta'minlandi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish asosida, bu faoliyatlarni tartibga soluvchi qonunlar yaratildi. Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi, valyuta ishlarini tartibga solish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohaslariga yo'naltirish va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish uchun turli imtiyozlar yaratildi. Respublikada qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada ko'paytirish uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Nafaqat ichki kredit manbalarini safarbar etish, balki xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladigan qulay muhit yaratish vazifasi biz uchun o'ta muhim strategik ahamiyatga egadir.

Investitsiyalar jalb qilish har bir davlatning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bu masalani shaxsan davlat rahbarining o'zi nazorat qilayotgani ham, har bir viloyatda bu borada alohida guruhlar ish olib borayotgani ham bejiz emas.

Mamlakatdagi siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishning kuchli kafolati va keng imtiyozlar tizimi kabi omillar tadbirkorlar uchun eng qulay shart-sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xomashyo, materiallar, energiya resurslari va yuqori malakali ishchi kuchi

bahosi qo‘shni mamlakatlarga nisbatan arzon bo‘lishi xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadal-lashtirishga yo‘naltirilgan faol siyosat olib borilmoqda. Milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiyasining ta‘minlanishi va islohot-larni amalga oshirish strategiyasi O‘zbekistonda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay asosni shakllantiradi.

Chet ellik investor O‘zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan, o‘ziga tegishli bo‘lgan ixtirolarni, foydali modellarni va sanoat namunalarini xorijda hamda O‘zbekiston Respublikasida patentlash to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega.

Chet davlatlarning fuqarolari bo‘lgan chet ellik investorlarga, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish korxonalarini tashkil etishga investitsiyalar kiritgan muassislariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlarda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi soddalashtirilgan tartibda beriladi.

Chet ellik investorlarga “investitsiya vizasi” turidagi vizani va O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet ellik investorlar hamda ularning oila a‘zolari (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari) quyidagi huquqlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashish;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan teng huquqlar asosida tibbiy va ta‘lim xizmatlaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim muassasalarida o‘rta va oliy ta‘lim olish.

Investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqiga ega. Bunday shaxslar mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida tegishli ko‘p martalik vizalarni olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo‘lish huquqiga ega.

Chet ellik xodimlar mehnatiga haq to‘lash, ularga ta‘til berish, ularni pensiya bilan ta‘minlash masalalari ushbu xodimlarning har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida hal etilishi kerak. Ushbu xodimlarning ish haqi va qonuniy yo‘l bilan olingan boshqa daromadlari qonunda belgilangan soliq va to‘lov to‘langandan keyin ular tomonidan boshqa davlatlarga hech bir cheklovlersiz o‘tkazilishi mumkin.

Investor, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona chet ellik xodim uchun pensiya ta‘minoti bo‘yicha to‘lovlarni ushbu xodimning doimiy yashash joyi bo‘lgan mamlakatning tegishli fondlariga o‘tkazishi mumkin.

Investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy ravishda faoliyat ko‘rsatayotgan har qanday sug‘urta tashkilotida sug‘urta himoyasiga bo‘lgan huquqdan foydalanadi. Investitsiyalarni siyosiy va boshqa tavakkalchiliklardan sug‘urtalash xalqaro tashkilotlar, chet el agentliklari, boshqa sug‘urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiyalarni sug‘urtalashni amalga oshiruvchi sug‘urta tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi. Davlat sug‘urta tashkilotlarining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi, bundan taraflarning bitimlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Investitsiyalarni sug'urtalash siyosiy va boshqa tavakkalchiliklardan, shu jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oluvchi tavakkalchiliklardan sug'urta himoyasini hamda kafolatlarini ta'minlaydi:

- ❖ mulkning rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinishini, shuningdek, mulkni olib qo'yishga yoki uni boshqa shaxsga berishga, uning ustidan yoki undan olinadigan daromadlar ustidan nazoratning yo'qolishiga olib keladigan har qanday qonunchilik yoki ma'muriy choralarni;

- ❖ chet el valyutasini mamlakatdan tashqariga o'tkazish bo'yicha cheklovlar joriy etishni;

- ❖ davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va ular mansabdor shaxslarining investorlar shartnomaviy munosabatlari aralashuvini;

- ❖ urushlarni, fuqarolarning tartibsizliklari va boshqa shunga o'xshash voqealarni;

- ❖ investorlar va chet el investitsiyalari bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va o'zga tavakkalchiliklarning boshqa turlarini.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishi va ularga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalari bilan berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, uning tashqarisida har qanday valyutada, har qanday bankda hisobvaraqlarni ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;

- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar eksport-import operatsiyalarini qonunchilik talablariga rioya etgan holda mustaqil ravishda amalga oshiradi. Shaxsiy ishlab chiqarish mahsulotlarining eksporti litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi.

O'zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mol-mulk ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida bojxona bojini undirishdan qonunchilikda belgilangan tartibda ozod etiladi. Chet ellik investorlarning, chet davlatlar fuqarolarining va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan bojxona boji undirilmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yer uchastkasini ellik yilga qadar, biroq investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun arizada ko'rsatilganidan kam bo'lmagan uzoq muddatli ijaraga olish huquqiga ega.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

O'z ustav fondini (ustav kapitalini) belgilangan muddatda ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda shakllantira olmagan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni amalda shakllantirib ulgurgan, ammo qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lmagan darajagacha kamaytirishi yoki o'zi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga aylantirilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning aktivlariga ushbu korxonalar tugatilgan taqdirda soliq solinadi. Aktivlarning qolgan qismi, agar ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona ishtirokchilari o'rtasida ularning korxona mol-mulkidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Chet ellik investor chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona tarkibidan chiqqan yoki ushbu korxona tugatilgan taqdirda korxonaning

mol-mulkidagi o'z ulushini bozor qiymatiga muvofiq pul yoki tovar shaklida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish g'oyasi o'tgan asr 80-yillari oxirida ko'rib chiqilgandi. O'sha paytda ko'pgina mutaxassislar bu hududlarni respublika iqtisodiyotini qayta isloh qilishning yangi mexanizmi va istiqboli deb hisoblashgan. Haqiqatdan ham, EIZlarni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi shuni ko'rsatdiki, bu kabi hududlarni tashkil etish orqali milliy va chet el investitsiyalarini keng ko'lamda iqtisodiyotga jalb etish, ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish, eksport salohiyati va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o'rinlarini barpo etish kabi masalalarni hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz hududida EIZlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonuniga²⁸ asoslanib amalga oshiriladi. Tashkil etilgan EIZlar mazkur qonun va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq faoliyat ko'rsatadilar.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekistonda EIZni tashkil etishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- EIZni tashkil etish to'g'risida mahalliy hokimiyatning qarori.
- EIZga beriladigan mavqeyi, boshqaruv tashkilotlari va rasmiy nomi ko'rsatiluvchi Nizom loyihasi.
- Mazkur hudud joylashgan hudud chegaralari aniq ko'rsatilgan xaritasi.
- Tashkil etiluvchi hudud faoliyatining texnik – iqtisodiy asosnomasi.
- EIZni tashkil etish to'g'risidagi qarorning loyihasi.

Quyida keltirilgan jadvalda 2019-yil holatiga ko'ra jami 16 ta erkin iqtisodiy zona, 63 ta kichik sanoat zona direksiyasi (keyingi o'rinlarda

²⁸ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 220-I-sonli Qonuni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son

– KSZ), 3 ta texnopark hamda 117 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari mavjud bo‘lgan bo‘lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni EIZlarda 388 tani, KSZlarida 1317 tani, texnoparklarda 49 tani va klasterlarida 117 tani tashkil etgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

**2019–2022-yillarda respublika bo‘yicha hududlar kesimida
mavjud EIZ va KSZlar²⁹**

Viloyatlar	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	EI Z	KS Z	EI Z	KS Z	EI Z	KS Z	EI Z	KS Z
O‘zbekiston Respublikasi	16	63	18	77	21	114	20	317
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1	7	1	7	1	11	1	11
Andijon	-	2	1	2	1	2	1	19
Buxoro	2	3	2	3	2	1	2	21
Jizzax	2	1	2	1	2	1	2	22
Qashqadaryo	-	5	-	6	-	8	-	17
Navoiy	1	-	1	1	1	1	1	7
Namangan	2	6	2	8	2	26	2	59
Samarqand	1	1	1	1	1	1	1	26
Surxondaryo	1	9	1	9	3	20	2	25
Sirdaryo	1	1	1	1	2	8	2	11
Toshkent	3	17	4	18	4	17	4	19
Farg‘ona	1	2	1	11	1	9	1	62
Xorazm	1	1	1	1	1	1	1	10
Toshkent sh.	-	8	-	8	-	8	-	8


2020-yilda esa ularning soni jami 18 ta erkin iqtisodiy zona, 77 ta kichik sanoat zonasi, 10 ta texnopark hamda 420 ta klasterlarni tashkil etgan bo‘lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni EIZlarda 526 taga,

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

KSZlarida 1675 taga, texnoparklarda 484 taga va klasterlarda 420 taga yetgan.

2021-yil statistik ma'lumotlarga ko'ra jami 513 ta korxonaga ega 21 ta erkin iqtisodiy zona, 1869 ta korxonadan iborat 114 ta kichik sanoat zonasi, 56 ta korxonaga ega 7 ta texnopark hamda 425 ta korxonadan iborat 415 ta klasterlar mavjud bo'lgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ishtirokchisi mavjud jami 20 ta erkin iqtisodiy zona, 317 ta kichik sanoat zonasi, 21 ta texnopark hamda 506 ta klasterlar mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni EIZda 679 tani, KSZda 2 796 tani, texnoparklarda 1 077 tani va klasterlarda 509 tani tashkil etdi (2.1-rasm).



2.1-rasm. EIZ va KSZlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'mda)³⁰

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu 2.1-rasmda 2019–2022-yillar kesimida EIZ va KSZlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi keltirilganligidan ko‘rishimiz mumkinki, oxirgi yillar mobaynida EIZ va KSZlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarishida o‘shish surati kuztilgan. 2019-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jami hajmi 15074,4 mlrd. so‘m bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasidan 7877,5 mlrd. so‘mni tashkil qilgan, ushbu miqdor esa umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 52,3 %ni tashkil etgan. 2020-yilda esa bu ko‘rsatkich EIZda – 12268,8 mlrd. so‘mga, KSZda – 2694,2 mlrd. so‘mga yetgan, bu esa EIZ, KSZ, texnoparklar va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning umumiy sanoat ishlab chiqargan 27824,2 mlrd. so‘mning 54 %ini tashkil etgan, shundan texnoparklarda – 252,2 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 12609,0 mlrd. so‘mdan iborat. Eng yuqori ko‘rsatkich klasterlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 12609,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yil statistik ma‘lumotlarga ko‘ra jami – 43099,1 mlrd. so‘mni tashkil qilgan, shundan EIZda – 18704,2 mlrd. so‘mni, KSZda – 3964,4 mlrd. so‘mni, texnopark – 494,5 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 19936,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

O‘tgan 2022-yil mobaynida ushbu hududlardagi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami – 62 716,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan EIZda – 27 252,1 mlrd. so‘mni, KSZda – 6 358,3 mlrd. so‘mni, texnopark – 427,2 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 28 679,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Yuqoridagi 2.2-jadvalda 2019-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlarning umumiy hajmi – 68,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan, shundan EIZda – 36,9 mlrd. so‘m, KSZda – 32,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yil ushbu ko‘rsatkich jami – 104,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan EIZda – 62,6 mlrd. so‘mni (2019-yilning

shu davriga nisbatan 69,6 % ga ko‘paygani kuzatilgan), KSZda – 41,9 mlrd. so‘mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 30,9 % ga ko‘paygan) tashkil qilgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

EIZ va KSZlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari va moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘mda)³¹

	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	EIZ	KS Z	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ	EIZ	K S Z
Tarkibidagi korxonalar soni (ta)	388	131 7	526	1675	513	1869	679	27 96
O‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘mda)								
	36,9	32,0	62,6	41,9	31,4	136,8	63,3	13 8, 2
Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘mda)								
	3313,1	415	3971, 6	304,6	3319,9	219,3	373 5	16 63 ,6

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi esa 5481,0 mlrd. so‘m(2018-yilning shu davriga nisbatan 2,5 martaga o‘sgan)ni tashkil etdi Eng yuqori ko‘rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib 3313,1 mlrd. so‘mni yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 60,4 %ni tashkil etgan.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2020-yil ushbu ko'rsatkich jami – 6511,8 mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: EIZda – 3971,6 mlrd. so'mni (investitsiyalar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,9 % ga ko'paygan), KSZda – 304,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,6 % ga kamaygan), texnoparkda – 67,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 martaga ko'paygan), klasterlarda – 2167,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,3 % ga ko'paygan) tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich kesimida 2021-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 174,7 mlrd. so'm miqdorda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari bajarilgan, shundan 31,4 mlrd. so'm qiymatdagi EIZda, 136,8 mlrd. so'm miqdorda KSZda, 6,5 mlrd. so'm miqdorda texnoparklarda amalga oshirilgan. Eng yuqori ko'rsatkich KSZ tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 136,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami bu yilda – 4801,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan, shundan: EIZda – 3319,9 mlrd. so'mni, KSZda – 219,3 mlrd. so'mni, texnopark – 17,5 mlrd. so'mni va klasterlarda – 1245,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

O'tgan 2022-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 257,2 mlrd. so'm qiymatda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari amalga oshirilgan, shundan EIZda – 63,3 mlrd. so'mni, KSZda – 138,2 mlrd. so'mni, texnoparklarda – 7,9 mlrd. so'mni, klasterlarda – 47,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi esa jami – 7 621,5 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: EIZda 3 735,0 mlrd. so'mni, KSZda – 1 663,6 mlrd. so'mni, texnopark – 156,4 mlrd. so'mni va klasterlarda – 2 066,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2.3-jadval).

2.3-jadval**EIZ va KSZlarda Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda
(mlrd. so'mda)³²**

	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ
Tarkibi- dagi korxona- lar soni	388	1317	526	1675	513	1869	679	2796
Foyda solig'ini to'lagun- ga qadar foyda	401,7	202,5	564,3	249,7	540,3	258,0	2 081,4	372,8

Keltirilgan 2.3-jadvalda 2019-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda miqdori jami – 791,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan, shundan EIZda – 401,7 mlrd. so'm, KSZda – 202,5 mlrd. so'm va qolgan 187 mlrd. so'm qismi texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich miqdori jami – 1564,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan, bundan EIZda – 564,3 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 40,5 % ga ko'paygan), KSZda – 249,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,3 % ga ko'paygan), texnoparkda – 384,3 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 42,2 martaga ko'paygan), klasterlarda – 366,1 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 2 martaga ko'paygan) tashkil etgan.

2021-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda bu miqdor jami– 1925,3 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan EIZda – 540,3 mlrd. so'm zararni, KSZda – 258,0 mlrd.

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

soʻmni, texnopark – 12,9 mlrd. soʻmni va klasterlarda – 1114,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

Oʻtgan 2022-yilda ushbu guruhga kiruvchi korxonalarda foyda soligʻini toʻlagunga qadar foyda (zarar) (-) miqdori jami – 5 377,5 mlrd. soʻmni tashkil qildi shundan: KSZda – 372,8 mlrd. soʻmni, texnoparkda – 1 912,0 mlrd. soʻmni, EIZda – 2 081,4 mlrd. soʻm va klasterlarda – 1 011,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2.4-jadval).

2.4-jadval

EIZ va KSZlarda respublikadan tashqari (eksport) ga yuklab joʻnatilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori (mlrd. soʻmda)³³

Respublikadan tashqari (eksport) ga yuklab joʻnatilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori								
Yillar	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
Sanoat hududi	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ	EIZ	KSZ
Tarkibi-dagi korxona-lar soni	388	131 7	526	167 5	513	1869	679	2796
Sanoat mahsulotlari qiymati	927, 5	497, 6	1782, 7	717, 5	3646, 4	1000, 3	5290 ,6	1273,7

Keltirilgan 2.4-jadvalda EIZ va KSZlarda respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab joʻnatilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori yillar kesimida ifodalangan boʻlib, 2019-yilda EIZ,

³³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi jami korxonalar tomonidan miqdori 2685,7 mlrd. soʻmga teng mahsulot chiqarilgan. Eng yuqori koʻrsatkich klasterlar tarkibidagi korxonalar hissasiga toʻgʻri kelgan boʻlib, 1199,8 mlrd. soʻmni, yoki umumiy respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab joʻnatilgan sanoat mahsulot hajmiga nisbatan 44,7 %ni, tashkil etgan (2.5-jadval).

2.5-jadval

EIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari (% da)³⁴

Mahsulot turlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	16,6	13,9	10,8
Metallurgiya sanoati	14,9	15,3	16,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	14	9,8	10,2
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	12,7	19,1	17,9
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	9,7	5,1	5,4
Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	7,1	6,7	6,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	6,7	6,1	5,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	2,7	4,4	5,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkama ishlab chiqarish	2,6	8,7	9,3
Boshqalar	13	10,8	13

2020-yilda esa EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan bu miqdor jami – 5995,9 mlrd. soʻmni tashkil qilgan boʻlib, shundan EIZda – 1782,7 mlrd. soʻmni, KSZda – 717,5

³⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

mlrd. soʻmni, qolgan ulush esa texnopark va klasterlar hisobidan amalga oshirilgan.

2021-yilda EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan jami 10322,3 mlrd. soʻm qiymatdagi mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lar eksport qilingan, bundan EIZ hisobiga – 3646,4 mlrd. soʻm, KSZ hisobiga – 1000,3 mlrd. soʻm toʻgʻri kelgan. Oʻtgan 2022-yilda esa bu qiymat umumiy ravishda jami – 12 463,2 mlrd. soʻmni tashkil qildi, shundan EIZ tarkibidagi 679 ta korxona hisobidan – 5 290,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Yuqoridagi 2.5-jadvalda respublikamiz boʻyicha soʻnggi 2020–2022-yillarda erkin iqtisodiy zonalarda asosiy ishlab chiqariluvchi mahsulotlarning yirik ulushga ega turlari foizlarda ifodalangan. Bularga rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish, metallurgiya sanoati, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkama ishlab chiqarish va boshqalar kiradi. Bunda metallurgiya sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish oxirgi yillarda 14,9 % dan 16,3 % gacha oshganligini koʻrishimiz mumkin hamda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi 2,7 % dan 5,5 % gacha, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkama ishlab chiqarish esa 2,6 % dan 9,3 % gacha sezilarli darajada koʻtarilgan.

Tashkil etilgan EIZlarning dastlabkisi “Navoiy” EIZ hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish va Navoiy viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” Qaroriga muvofiq foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari “Navoiy” EIZga kiritildi, shuningdek, Navoiy, Zarafshon

shaharlari, Karmana va Xatirchi tumanlari nomi bilan ataluvchi kichik sanoat zonalari barpo etildi (2.6-jadval).

2.6-jadval

**O‘zbekistonda EIZlarning joylashishi va tashkil etilishi
xronologiyasi³⁵**

Erkin iqtisodiy zonalar	Joylashgan viloyati	Tashkil etilish yili
Sanoat		
Navoiy EIZ	Navoiy	2008
Angren EIZ	Toshkent	2012
Jizzax EIZ	Jizzax	2013
Urgut EIZ	Samarqand	2017
G‘ijduvon	Buxoro	2017
Qo‘qon EIZ	Farg‘ona	2017
Xazorasp EIZ	Xorazm	2017
Nukus EIZ	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2019
Sirdaryo EIZ	Sirdaryo	2018
Namangan EIZ	Namangan	2018
Termiz EIZ	Surxondaryo	2018
Farmasevtika		
Zomin – Farm EIZ	Jizzax	2017
Bo‘stonliq – Farm EIZ	Toshkent	2017
Sirdaryo – Farm EIZ	Sirdaryo	2017
Kosonsoy – Farm EIZ	Namangan	2017
Andijon – Farm EIZ	Andijon	2019
Parkent – Farm EIZ	Toshkent	2017
Turizm		
Chorvoq Turistik – rekreatsion zonasi	Toshkent	2017
Zomin Turistik – rekreatsion zonasi	Jizzax	2021

³⁵ Sez.gov.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qishloq xo‘jaligi		
Buxoro – Agro EIZ	Buxoro	2018
Qoraqalpog‘Agro EIZ	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2021

“Navoiy EIZ direksiyasi” AJning 2022–2026-yilgacha rivojlanish strategiyasi:

- Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi oqibatida mamlakatga ko‘plab investitsiyalarni oqib kelishini kuzatishimiz mumkin. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati yanada rivojlanib, tashqi savdo, eksport import operatsiyalarini yanada rivojlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirib, uni rivojlanishiga olib keladi.

- Buning uchun avvalambor, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda hududlarni, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va joylashuv manzilini to‘g‘ri tanlash;

- Hududlar imkoniyatidan kelib chiqqan holda erkin iqtisodiy zona faoliyati yo‘nalishini va istiqbolini aniqlash;

- Erkin iqtisodiy zonalarda klaster yondashuvlardan keng foydalangan holda zonalar ishtirokchilari o‘rtasida yaqin kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish;

- Chet elda va mamlakat vakolatxonalarida erkin iqtisodiy zonalar manfaatlarini ko‘zlovchi, investorlarni jalb etish uchun informatsion reklama tadbirlarini o‘tkazish;

- Ommaviy axborot vositalari va internet sahifalarida mamlakatda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlari hamda salohiyati bo‘yicha jozibadorligini ifodalovchi reklamalarni kuchaytirish;

- Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish iqtisodiyotini rivojlanishi, eksport salohiyatini oshishi, aholi bandligini ta‘minlash, aholi turmush farovonligining ravnaqi va iqtisodiyot barqarorligi, eng asosiysi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib o‘z mavqeyiga ega bo‘lishiga olib keladi.

Ayni vaqtda Navoiy viloyati Nurota tumanida umumiy maydoni 500 gektar bo'lgan plantatsiyalarda lavanda va itburun (shipovnik) o'simliklarini yetishtirib, keyinchalik qayta ishlanib, undan moy olish bo'yicha yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 2,5 million dollarga baholanmoqda.

“FHH Garden Flower” MCHJ tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Ulardan birinchisi yer unumdorligini oshirish, sug'orish tizimini o'rnatish, lavanda va yovvoyi atirgul ekish ishlarini o'z ichiga oladi.

EastFruit mutaxassislarining fikricha, birinchi bosqich qiymati 1 million dollarni tashkil etadi va loyihaning ushbu bosqichida 10 ta doimiy va 70 ta mavsumiy ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.³⁶

Birinchi bosqichni amalga oshirishning oxirgi muddati 2024-yil dekabr oyiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi bosqich esa lavanda va atirgul moylarini ishlab chiqarish liniyalarini qurish, montaj qilish va ishga tushirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning qiymati 1,5 million dollarni tashkil etadi va bu bosqichda 20 ta doimiy va 150 ta mavsumiy ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Ikkinchi bosqichni amalga oshirishning oxirgi muddati 2027-yil dekabr oyi etib prognoz qilingan.³⁷

Korxona yiliga 25 ming litr lavanda va atirgul moyi ishlab chiqarishni rejalashtirgan bo'lib, barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar xorij davlatlariga eksport qilinadi.

O'zbekiston 2020-yilda “lavanda o'rni”ni o'rganishni boshlagan. 2020-yil iyun oyida Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida 110 gektar maydonga 1 million tup lavanda ko'chati ekilgan bo'lib, ushbu

³⁶<https://miit.uz/oz/news/baaning-dp-world-kompaniyasi-navoiy-eiz-samaradorligini-oshiradi>

³⁷<https://miit.uz/oz/news/baaning-dp-world-kompaniyasi-navoiy-eiz-samaradorligini-oshiradi>

plantatsiyalar egasi “Alihan Organic Agro” MChJ xorijiy korxonasi lavanda plantatsiyalari maydonini 500 gektargacha kengaytirishni rejalashtirgan.

2021-yil boshida Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida, Toshkent shahridan unchalik uzoq bo‘lmagan 40 gektar maydonda lavanda maydonlari yotqizish boshlandi. Ana shunday ikkinchi plantatsiya Namangan viloyatida, ehtimol, “Kosonsoy-farm” erkin iqtisodiy zonasi hududida tashkil etilishi rejalashtirilgan edi.

2023-yilning 6-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida videokonferensaloqa tarzida 2022-yil 25-noyabrdagi BAAning DP World kompaniyasi bilan “Navoiy” EIZni boshqarish to‘g‘risidagi bitimda o‘z aksini topgan “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha loyihasining amaliy ijrosi muhokamasiga bag‘ishlangan muzokaralar bo‘lib o‘tdi.³⁸

Muzokaralarda Vazirlik, Navoiy viloyati mahalliy hokimiyat organlari, DP World kompaniyasi va “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi vakillari ishtirok etdi.

Xususan, EIZ faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish rejalari tahlil qilinib, ushbu loyihani amalga oshirish bo‘yicha navbatdagi tadbirlar kelishib olindi. Ustuvor vazifalar qatorida “Navoiy” EIZ rezidentlari sifatida yetakchi xalqaro kompaniyalarni, jumladan, BAAda joylashgan “Jebel Ali” erkin iqtisodiy zonasining yirik ishlab chiqarish korxonalarini jalb etish masalalari belgilandi.

DP World dengiz va quruq portlar, konteyner terminallari, sanoat parklari va erkin iqtisodiy zonalarning dunyodagi eng yirik operatorlaridan biri hisoblanadi. U Jebel Ali porti va erkin iqtisodiy zonasi (BAA), London Gateway (Buyuk Britaniya), Qingdao (XXR), Busan (Koreya), Rotterdam World Gateway (Niderlandlar) va boshqa port va

³⁸<https://miit.uz/oz/news/baaning-dp-world-kompaniyasi-navoiy-eiz-samaradorligini-oshiradi>

konteyner terminallarini boshqaradi. Kompaniya olti qit’adagi 40 ta mamlakatda joylashgan 78 ta dengiz va ichki terminallarga ega.³⁹

Ustavga muvofiq direksiya marketing, konsalting, logistika, mehmonxona, ta’lim, xodimlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xizmatlar turlarini ko’rsatadi.

“Navoiy” EIZning 2023-yil uchun daromadlari prognozi 4 234 020,71 ming so‘mni tashkil etadi (2.7-jadval).

2.7-jadval

“Navoiy” EIZning 2023-yil uchun daromadlari prognozi⁴⁰

T/r	Yo‘nalishlar	1 yil uchun qiymati
1	EIZ ishtirokchilarining ma’muriy to‘lovlar (ijara) ko‘rinishidagi ajratmalari	3 757 009,77
2	Maxsus transport vositalaridan foydalanishdan olingan daromadlar	105 800,00
3	Ijaradan daromad	75 817,46
4	EIZ ishtirokchilarini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi kvitansiyalar	55 393,49
5	Elektron auksionsidan tushgan daromad	240 000,00
Jami		4 234 020,71

EIZ ishtirokchilarining ma’muriy to‘lovlar (ijara) shaklidagi ushlab qolishi Direktsiyaning asosiy daromad manbayi EIZ ishtirokchilarining erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari tomonidan to‘lanadigan ma’muriy to‘lovlar (ijara) shaklidagi ajratmalari hisoblanadi. Har bir ishtirokchi ishğ‘ol qilingan hududga muvofiq miqdorda to‘lovni amalga oshiradi. 2023-yil uchun ma’muriy yig‘imlar bo‘yicha tushumlar 3 757 009,77 ming so‘m miqdorida prognoz qilinmoqda.

“Navoiy” EIZning 2020-yil 8-fevraldagi 4-son bayonnomasiga muvofiq infratuzilma obyektlaridan foydalanish huquqi uchun ajratmalar miqdori belgilanadi va quyidagilarni tashkil etadi:

³⁹<https://miit.uz/oz/news/baaning-dp-world-kompaniyasi-navoiy-eiz-samaradorligini-oshiradi>

⁴⁰<https://namfez.uz/> ma’lumotlari asosida tuzilgan.


– Karmana hududida – 16 459 361 so‘m (39 ta korxona va qo‘shimcha obyektlar);

– Navoiy shahri – 23 244 127 so‘m (24 ta korxona).

“Navoiy” EIZning asosiy hududi – 648,2 ga. Hozirgi bosqichda investitsiya loyihalari yer uchastkasining Karmana tumanidagi atigi 45 foizini egallagan, Navoiy shahrining asosiy hududida (bo‘sh va foydalanilmayotgan binolar jamlangan) – 100%.

Direksiya balansida “Navoiy” EIZ korxonalariga (ishtirokchilariga) xizmat ko‘rsatuvchi maxsus avtomashinalar, ya’ni 1 ta chiqindi va 1 ta suv tashish avtomashinalari mavjud. 2023-yilga borib maxsus avtotransportdan olinadigan daromad 105 800,00 ming so‘mga yetishi kutilmoqda.

“Navoiy” EIZning 2023-yil uchun xarajatlar prognozi 4 149 388,62 ming so‘mni tashkil etadi (2.2-rasm).⁴¹



2.2-rasm. “Navoiy” EIZning daromad va xarajatlari (ming so‘mda)⁴²

Direksiya ma’muriy binosining foydalanilmayotgan, bo‘sh turgan binolari ijar shartnomasi asosida tadbirkorlik subyektlariga ijaraga

⁴¹ <https://namfez.uz/>

⁴² <https://namfez.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

beriladi. Shuningdek, foydalanilmagan tovar-moddiy boyliklar shart-noma bo'yicha ijaraga beriladi. 2023-yilga borib ijara haqi 75 817,46 ming so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Navoiy erkin iqtisodiy zonasida hozirgi kunda moliyalashtirilgan tugallangan loyihalar soni 65 ta bo'lib, ularning umumiy qiymati 341,9 mln. dollarni tashkil etib, undan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymati 96,6 mln.dollardan iborat. Yaratilgan ish o'rinlari soni 4225 ta.

Ayni moliyalashtirilayotgan loyihalar soni 57 ta bo'lib, ularning umumiy qiymati 623,1 mln. dollarni tashkil etib, undan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymati 186,7 mln.dollardan iborat. Yaratilgan ish o'rinlari soni 6679 ta. Jami istiqbolli investitsiya loyiha-lar 29 ta, umumiy qiymati 434,2 mln.dollar, undan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymati 426,4 mln.dollardan iborat.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yilda tashkil etilgan.

Erkin iqtisodiy zonaning umumiy yer maydoni 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1902,5 gektarni tashkil etadi. Rivojlangan infratuzilmaga ega yer uchastkalari, moliyaviy va bojxona imtiyozlari paketi 1262 gektar. «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi uchun Samarqand viloyatining Urgut, Pastdarg'om, Nurobod tumanlari hamda Samarqand shahridan jami 918 gektar yer maydoni ajratilgan. Shundan 278,7 gektar yer maydonida «Urgut» EIZ ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlari tomonidan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. 474 gektar yer maydonida muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzil-masi obyektlari joylashtirilgan. 173,1 gektar yer maydoni muhofaza zonalaridan iborat ekanligi hamda 259 gektar yer maydonida istiqbolli investitsiya loyihalarini joylashtirish rejalashtirilgan⁴³.

2021-yilda EIZ hududida qiymati 313 million dollarlik, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 56,8 million dollar bo'lgan 55

⁴³ <https://ufez.uz/en/home-store/>

ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi va natijada 4,5 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi. Ayni paytda umumiy qiymati 90 million dollarlik, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 23,2 million dollar bo'lgan 29 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.⁴⁴

Qarorga ko'ra, Urgut tumani «O'ramas» mavzesi hududidan 50 gektar hamda Samarqand shahar hokimligi zaxirasidagi Samarqand shahri «Xishrav» mavzesida joylashgan 294 gektar yer uchastkalarini ajratish hisobiga «Urgut» EIZ hududi kengaytiriladi.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan AR (Augmented Reality) – to'ldirilgan reallik asosida marketing platformasi joriy etiladi. Bunda mazkur erkin iqtisodiy zona rezidentlariga to'ldirilgan reallikka asoslangan raqamli marketing bo'yicha treninglar tashkil etiladi hamda rezidentlarning faoliyati bosqichma-bosqich raqamli platformaga o'tkaziladi. Bu “Urgut” EIZ rezidentlari mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda reklama qilish imkoniyatini beradi, mahsulotlarning eksport jozibadorligi oshishiga xizmat qiladi. Mazkur loyiha Islandiyaning “Uno EHF” tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilib, ta'lim bilan ishlab chiqarishning integratsiyasi ta'minlanadi.⁴⁵

“Urgut” EIZda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan innovatsion hassa ko'zi o'jiz insonlar va eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning jamiyatda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini oshirishiga xizmat qiladi. Innovatsion hassaning qulayliklari – mijoz harakatlanayotganida 2 metr masofa oraliqida mavjud to'siq hamda chuqurliklar to'g'risida elektromagnit to'liqlik signallar tarqatgan holda ma'lumot to'playdi va hassa egasini ovoz chiqarish yoki tebranish orqali ogohlantiradi. Ultratovush sensori 30 daraja burchakda to'siq hamda chuqurliklarni

⁴⁴ <https://ufez.uz/en/home-store/>

⁴⁵ <https://xs.uz/uz/post/urgutga-ilm-fan-natizhalari-zhorij-etiladi-vazir>

aniqlay oladi. Innovatsion hasa egasi uchun jamoat transporti vositalaridan foydalanishda ham ishonchli bufer vazifasini bajaradi. AQSHning Massachusetts texnologik universiteti, Arizona universiteti va Almati menejment universiteti bilan hamkorlikda “REAP” hududiy akselerator dasturi ustida ishlayapti. Ushbu dastur doirasida “Urgut” EIZda o‘qishlar tashkil etiladi. Bu kelajakda EIZning filiallarini tumanlarda ochish uchun zamin yaratadi. Qolaversa, Samarqand davlat universiteti filialining Urgutda tashkil qilinishi ham tumanning namunaviy innovatsion zona bo‘lishi uchun yana bir afzallikdir.

2023-yilda sanoat zonalariga va yirik investitsiya loyihalari infratuzilmasi uchun 1,7 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Joriy 2023-yilda Qoraqalpog‘iston va Qashqadaryoda «Urgut» erkin iqtisodiy zonasining filiallari tashkil etiladi. Shu sababdan, 2023-yilning 1-iyulga qadar sanoat zonalariga ajratilgan mablag‘lar hisobiga infratuzilma masalasini hal etish, yil yakuniga qadar sanoat zonalarida 1 ming 264 ta loyihani ishga tushirib, qo‘shimcha 3 trillion so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ta‘minlash maqsad qilib qo‘yilgan.⁴⁶

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasining muvaffaqiyatli tajribasi asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida Beruniy tumanidagi 22,3 gektar, Kitob tumanidagi 37,4 gektar bo‘sh turgan yaylov va lalmi yer uchastkalarini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkaziladi.

Urgut erkin iqtisodiy zonasida hozirgi kunda moliyalashtirilgan tugallangan loyihalar soni 56 ta bo‘lib, ularning umumiy qiymati 281,6 mln. dollarni tashkil etib, undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-yanvardagi “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining hududini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2-son Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.01.2023-y., 07/23/2/0025-son.

qiymati 49,8 mln.dollardan iborat. Yaratilgan ish o‘rinlari soni esa 3884 ta.⁴⁷

Yana bir respublikamiz hududidagi rivojlanib borayotgan zonalaridan biri Namangan erkin iqtisodiy zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi PF-5517-son farmoniga⁴⁸ muvofiq tashkil etilgan.

Ayni moliyalashtirilayotgan loyihalar soni 40 ta bo‘lib, ularning umumiy qiymati 320,5 mln. dollarni tashkil etib, undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qiymati 86,2 mln.dollardan iborat. Yaratilgan ish o‘rinlari soni 3734 ta. Jami istiqbolli investitsiya loyihalar 31 ta, umumiy qiymati 167,3 mln. dollar undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qiymati 3,9 mln. dollardan iborat.⁴⁹

Namangan viloyatida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Namangan shahri Islomobod dahasida “Namangan” erkin iqtisodiy zonasi uchun 80 gektar yer maydoni ajratilib, dastlabki qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Joriy 2023-yilda “Namangan” erkin iqtisodiy zonasining “Ibrat” massivida “Coca-Cola” zavodi qurilishi rejalashtirilgan. “Coca-Cola Ichimligi Uzbekiston, Ltd” kompaniyasi bosh direktori Ezel Agao‘g‘lining aytishicha, joy tanlashda tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Loyiha qiymati 27,7 million dollarni tashkil etadi, qurilishni moliyalashtirish xorijiy manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Zavodda 300 ish o‘rni yaratiladi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 75 million dollarni tashkil qiladi.

Ushbu hududning umumiy yer maydoni 681 gektardan iborat. Loyihalarning umumiy soni 25 ta bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish hajmi

⁴⁷ www.ufe.z.uz

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi “Namangan” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”dagi PF-5517-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.

⁴⁹ Sez.gov.uz ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

957,1 mln. dollarni tashkil etadi. Yillik eksport hajmi qiymati 357,4 mln. dollarga teng.

EIZ hududida investitsiya loyihalarini joylashtirishda quyidagilar majburiy mezonlar hisoblanadi:

- ❖ Mahalliyashtirish loyiholari uchun qonunchilikda oʻrnatilgan parametrlarga muvofiq import oʻrnini bosuvchi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etish;

- ❖ Eksport hajmi ishlab chiqarish faoliyatining ikkinchi yili kamida 20 foiz, uchinchi va keyingi yillarda 30 foizdan kam boʻlmagan darajada;

- ❖ Namangan erkin iqtisodiy zonasida hozirgi kunda moliyalashtirilgan tugallangan loyihalar soni 2 ta boʻlib, ularning umumiy qiymati 25 mln. dollarni tashkil etadi, yaratilgan ish oʻrinlari soni esa 1368 ta.⁵⁰

2024-yilgacha moliyalashtirilayotgan loyihalar soni 18 ta boʻlib, ularning umumiy qiymati 603,1 mln. dollarni tashkil etib, undan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar qiymati 43,4 mln.dollardan iborat. Umumiy eksport miqdori 268,8 mln. AQSH dollar hamda yaratilgan ish oʻrinlari soni 6509 tani tashkil qiladi.⁵¹

Jami istiqbolli investitsiya loyihalar 19 ta va umumiy qiymati 588,6 mln.dollar boʻlib, undan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar qiymati 419,6 mln. dollardan iborat.⁵²

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 10-iyuldagi qaroriga muvofiq, Buxoro viloyatning beshta tumanida “Buxoro-agro” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan. Hozirgi vaqtdagi maydoni 2000 gektardan iborat. Ularda gidroponik issiqxonalar barpo etish orqali eksportbop qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishi yangi ish oʻrinlari yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish moʻljallangan.

⁵⁰ <https://namfez.uz/>

⁵¹ <https://namfez.uz/>

⁵² www.Sez.gov.uz

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zona uchun 3 ming gektar yer maydoni ajratilgan. Joriy yilda 598 gektar yerda 98 ta loyihani amalga oshirish koʻzda tutilgan.

Ular doirasida energiya tejankor issiqxonalar tashkil etilib, mahsulotlarni saqlash va qadoqlash uchun ekologik toza qutilar ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyiladi, 4 ming 300 dan ortiq ish oʻrinlari yaratiladi. Qoʻshni davlatlarga 64 million dollarlik mahsulot yetkazib beriladi.⁵³

Xususan, Turkiya investitsiyasi ishtirokidagi “Buxoro Varnet” korxonasi tomonidan 115 gektar maydonda oynavand issiqxona qurish rejalashtirilgan. Buning afzalligi shundaki, oyna quyosh nurini 97 foizgacha oʻtkazadi, uzoq yillar foydalaniladi. Issiqxonada har gektarda 300 tonnadan 560 tonnagacha pomidor yetishtiriladi, mingdan ortiq ish oʻrinlari yaratiladi. Hozirgi paytda 30 gektar maydonda issiqxona qurilmoqda hamda Turkiyadan uskunalar keltirilmoqda.⁵⁴

Axborot manbalarga koʻra, 2021–2022-yillarda amalda oshirilgan investitsiya loyihalarning umumiy qiymati 972,7 mln. dollarni tashkil etgan, undan bank krediti 261,3 mln. dollar, oʻz mablagʻi hisobidan moliyalashtirish esa 115,5 mln. dollar hamda xorijiy investitsiya 595,9 mln. dollardan iborat boʻlgan.⁵⁵ Amalga oshirilayotgan loyihalar 168 ta, umumiy qiymati 286,1 mln.dollar, maydoni 575,7 gektar, yaratilayotgan ish oʻrinlari 6085 oʻrindan iborat. Istiqbolli loyihalar soni esa 62 tani, loyihalar qiymati 89.1 mln.dollarni tashkil etadi.

⁵³ <https://buxoro-agro.uz/>

⁵⁴ <https://xs.uz/uz/post/bukhoro-agro-erkin-iqtisodiy-zonasida-zamonaviy-issiqxonalar-barpo-etilmoqda>

⁵⁵ <https://buxoro-agro.uz/>

2.2. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ko‘lami va oqimini oshirishning konseptual jihatlari

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti investitsiyalarga, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarga bevosita bog‘liqdir. Shu munosabat bilan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakatda qulay va jozibador bo‘lgan investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarning investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirish, investitsiya faoliyatini barqaror rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy, moliyaviy-iqtisodiy hamda huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirish, respublikaga jalb qilinayotgan investitsiyalarning ko‘lamini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasidagi muammolarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish” mavzusida respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishdan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillardagi Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalaridagi investitsiya loyihalarini amaliyotga samarali tatbiq etish bilan ta’minlanadi. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmiga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarish va siljishlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq:

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan

qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladigan imtiyoz hamda preferensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Davlat mulki bo‘lgan obyektlarni yoki ularga bo‘lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki nolga teng xarid qiymati bo‘yicha investorga berish;

- Soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish;

- Investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investor tomonidan olinadigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.

- Imtiyozlar va preferensiyalar quyidagilarga qarab beriladi:

- Investitsiyalar hajmiga;

- Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan joyning shart-sharoitlariga;

- Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga;

- Investitsiya loyihasini amalga oshirish sohalari va tarmoqlariga. Soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar qonunda belgilangan tartibda beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladigan preferensiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan, shu jumladan, munitsipal obyektlarga nisbatan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan berilishi mumkin.

Imtiyozlar va preferensiyalar tegishli hududga investitsiyalar kiritishni nazarda tutuvchi investorlarga mazkur hudud infratuzilmasining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda beriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda tashkil etilgan va qonun hujjatlari bilan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko‘rsatishga) ixtisoslashgan korxonalarga O‘zbekiston Respublikasining So-

liq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq:

Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi, jumladan:

- ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

- mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek, investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga;

- bojxona hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlarida nazarda

tutilgan bo'lsa. Olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi bo'xona bo'jlarini to'lash majburiyatlari tiklangan holda bekor qilinadi;

– xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Budjetdan tashqari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar;

– qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi;

– vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar o'rnatilishi qat'iyon taqiqlangan va bu hol qonunga xilof deb hisoblanadi;

– investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi xorijiy kompaniyalar ishchilari uchun viza tartibini soddalashtirish

(kirish va ko‘p martalik vizalarni 12 oy muddatga rasmiylashtirish);

– xorijiy investorlarga o‘zlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun Davlat budjeti va uning ijrosi, pul-kredit siyosati, tashqi savdo hamda boshqa ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda zarur bo‘lgan iqtisodiy axborotlardan tizimli asosda belgilangan tartibda keng foydalanish imkoniyatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2012-yildagi PF-4434-sonli Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi PF-3594-sonli Farmoniga muvofiq:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko‘rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalarga quyidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi:

– 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;

– 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;

– 10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2017-yildagi PF-4933-sonli Farmoniga muvofiq:

Umumbelgilangan soliqlar to‘lovchi davlat mulki obyektlarining sotib oluvchilari – tashkilotlar oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan boshlab 12 oy muddatga yangi sotib olinayotgan davlat mulki obyektlari bo‘yicha mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi, bo‘shagan mablag‘lar xususiylashtirilgan obyektlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo‘naltiriladi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikni o'sgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etdi.


2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 245,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,9 % i yoki 151,5 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,1 % yoki 93,5 trln. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020-yildagi ulushiga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 18,3 % ni yoki 44,8 trln. so'mni tashkil etdi (2.3-rasm).

Iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish sohasida 2021-yilning asosiy yakunlari, hududlarida loyihalarni tanlash va amalga oshirishning yangi mexanizmini joriy etish, strategik rejalashtirish sohasidagi islohotlar yurtimizda yaratilayotgan qulay investitsiya muhitidan dalolat beradi. So'zimizning tasdig'i sifatida, O'zbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish agentligi bosh direktori o'rinbosari Aleksey Simning fikrlarini keltirib o'tamiz. "2021-yil yakuniga ko'ra, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd. dollarni tashkil etdi (yillik prognozga nisbatan 113% bajarildi), shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd. dollarga yetdi (2020-yil ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish sur'ati 110%).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd. dollarga yoki prognozga nisbatan 117%ga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2020-yilga nisbatan 124 foizlik o'sish bilan 8,2 mlrd. dollar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya

tashkilotlari mablagʻlarining oʻzlashtirilishi 2,1 mlrd. dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etdi” (2.3-rasm)⁵⁶.



2.3-rasm. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari tarkibi⁵⁷


2021-yil yanvar-dekabr oylarida 104457,3 mlrd. soʻm yoki Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan jami

⁵⁶ Jamoliddin Turdimov, Ziyoda Rizayeva. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi «Iqtisodiy sharh» jurnali №2/2022 Oʻzbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish agentligi bosh direktori oʻrinbosari Aleksey Sim bilan suhbat.

⁵⁷ Manba: <http://www.stat.uz> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

investitsiyalarning 42,7 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi. Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 39879,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 64577,9 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 200,2 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 81,7 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi (2.4-rasm).



2.4-rasm. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari tarkibi⁵⁸

Bunda korxona mablag'lari 29,1% ulushni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan esa 96,4% o'sish kuzatildi. Aholi mablag'lari 9,0%

⁵⁸ Manba: <http://www.stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ulushni tashkil qilib, oʻtga yilga nisbatan ijobiy natija kuzatilib, 104,5% oʻsishga erishildi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar markazlashmagan moliyalashtirish manbalari tarkibida 23,3% ulushni egallab, juda katta oʻsishga muvaffaq boʻlindi. Bunda oʻtgan yilga nisbatan 139,8% oʻsishga erishildi.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 8,0% ulushni tashkil etdi, oʻtgan yil bilan solishtirganda 110,9 %ga oʻsdi. Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar 12,3% ulushni tashkil qilib, oʻtgan yilga nisbatan pasayish sodir boʻldi va 91,8 % oʻsish qayd etildi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalarni raqamlarda jadval orqali koʻrishimiz mumkin (2.8-jadval).

2.8-jadval

2021-yil yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd soʻm⁵⁹


Respublika budjeti	21498,2
Korxona mablagʻlari	71257,3
Aholi mablagʻlari	22229,2
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	3114,4
Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	56989,9
Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar	30149,2
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	19545,4
OʻzR kafolati ostida xorijiy kreditlar	17318,2
Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi	2860,8

Quvonarlisi shundaki, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi oʻsib, bu orqali iqtisodiyotimizning koʻpgina sohalari rivoj topmoqda. Bu turdagi investitsiyalarning kirib kelishi

⁵⁹ Manba: <http://www.stat.uz> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yurtimizda xorijiy investorlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlarning mevasi bo‘lib hisoblanadi.

Barcha moliyalashtirish manbalari tarkibidan ko‘rinib turibdiki, korxona mablag‘laridan eng ko‘p 71257,3 mlrd so‘m investitsiya jalb qilingan. Keyingi o‘rinda esa kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 56989,9 mlrd so‘m bilan turibdi. O‘z navbatida yuqori ulushlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 30149,2 mlrd so‘m va aholi mablag‘lari 22229,2 mlrd so‘mni tashkil etdi (2.5-rasm).



2.5-rasm. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m⁶⁰

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasida kuzatilib, 2020-yilga nisbatan 11,9 % ga ko‘paydi. Bu yuqori o‘shish tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, yangi Boing-787-8 samolyotini xarid qilish, Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenini qurish, Shovot-Qorao‘zak yangi temiryo‘l liniyasini hamda Amudaryo ustidan o‘tuv-

⁶⁰ Manba: <http://www.stat.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

chi temiryo‘l va avtomobil yo‘li qo‘shma ko‘prigini qurish investitsiya loyihalari bilan bog‘liq.

Ma‘lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog‘liq. Bu borada Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga joriy etish, tumanimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma‘lumki qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya tizimi mamlakatimizning rivojlanishi va taraqqiy etishida, dunyodagi yetakchi davlatlar singari yuksak marra-larga erishishda katta yordam beradi (2.9-jadval).

2.9-jadval

2021-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi⁶¹


Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami investitsiyalardagi hajmi, mlrd so‘m	Jami investitsiyalar-dagi ulushi
qayta ishlash sanoati	39213,10	37,50%
tog‘-kon sanoati	14872,80	14,20%
qishloq xo‘jaligi	10156,40	9,70%
elektr, gaz bilan ta‘minlash	12622,40	12,10%
boshqa faoliyat turlari	8447,60	8,40%
tashish va saqlash	6309,30	6%
qurilish	4854,20	4,60%
sog‘liqni saqlash	4332,30	4,10%
axborot va aloqa	2139,20	2%
suv bilan ta‘minlash, kana-lizatsiya	1510,00	1,40%

⁶¹ Manba: <http://www.stat.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning eng yuqori ulushini qayta ishlash sanoati egallab turibdi. Qayta ishlash sanoatiga jami 39213,10 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan, bu jami investitsiyalarning 37,5 %ini tashkil qiladi. 14,2% ulushi bilan tog'-kon sanoati xorijiy investitsiyalar kiritilgan 2-iqtisodiy soha bo'lib, unga jami 14872,8 mlrd so'm investitsiya ajratildi. Elektr va gaz bilan ta'minlashga 12622,4 mlrd so'm mablag' ajratilib, bu 12,1% ni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 10156,4 mlrd so'mni tashkil qildi. Qurilishga 4854,2 mlrd so'm sog'liqni saqlash tarmog'iga esa 4332,3 mlrd so'm mablag' investitsiya qilindi. Xorijiy investitsiyaning kamroq qismi esa axborot va aloqa hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimini yaxshilashga ajratildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini quyida chizma orqali ko'rishimiz mumkin (2.6-rasm).

2021-yildan farqli o'laroq, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikning pasaygani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,8 % ni tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 202,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 65,4 %i yoki 132,0 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 34,6 % yoki 70,0 trln. so'm moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020-yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 8,0 % punktga kamayib, 19,5 %ni yoki 39 310,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



2.6-rasm 2021-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi⁶²

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162 289,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 80,5 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga ko'paydi (2.7-rasm).

⁶² Manba: <http://www.stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2.7-rasm. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar⁶³

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 51 911,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,7 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,9 % yoki 18 077,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 28 740,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,3 % punktga kamayib, 14,2 % ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar-dekabr oylarida 86 647,0 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 42,9 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga va 2020-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi davom etganiga qaramay, ushbu tendensiya 26 foizga kamayib, 1,7 milliard dollarni tashkil etdi. Energetika sektori, jumladan, qayta

⁶³ Manba: <http://www.stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tiklanadigan energiya manbalari, shuningdek, telekommunikatsiya va avtomobilsozlik sanoati bir qator yangi loyihalarni jalb qildi (2.8-rasm).

Mamlakatimizda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning eng asosiy qismini xorijiy kreditlar va portfel investitsiyalar tashkil etib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa ushbu jarayonda juda ham past ekanligini kuzatishimiz mumkin. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan qator islohotlarning natijasida S&P reyting agentligi 2018-yil 21-dekabrda O‘zbekistonga birinchi marta suveren kredit reytingini berdi. O‘zbekistonda nisbatan yaxshi makroiqtisodiy vaziyat, 2020 yilda yalpi ichki mahsulot 1,6 foizga o‘shishi va mamlakatning yangi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa’y-harakatlariga qaramay, kirib kelgan mablag‘lar 26 foizga qisqarib, 1,7 milliard dollarni tashkil etdi (2.8-jadval).



2.8-rasm. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi, uning tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi (mln. dollar)⁶⁴

⁶⁴ www.unctad.org va www.stat.uz sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Masalan, 2020-yil fevral oyida qabul qilingan EIZlar to‘g‘risidagi qonun energetika, shuningdek, telekommunikatsiya sohasida yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yordam berdi. 2020-yil may oyida hukumat 30 mamlakatdan 70 ta kompaniya va konsortsiumlar yashil energiya loyihalari bo‘yicha takliflar kiritganini e‘lon qildi. Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 32 847,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 53 799,8 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi (2.10-jadval).

2.10-jadval


2020-yilda yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m.⁶⁵

Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	
Respublika budjeti	13081,3
O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar jamg‘armasi	22467,1
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	1947,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	1814,6
Korxona mablag‘i	51911,3
Aholi mablag‘lari	18077,8
Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	35439,4
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	28740,5
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	28520,9

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 64 179,9 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 22 467,1 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

⁶⁵ Manba: <http://www.stat.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari hisobidan 28 520,9 mlrd. soʻm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,1 % ini tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi), Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 22 467,1 mlrd. soʻm (11,1 % va 3,1 % punktiga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 35 439,4 mlrd. soʻm (17,6 % va 7,6 % punktga koʻpaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi 1 814,6 mlrd. soʻm (0,9 % va 2,5 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 13 081,3 mlrd. soʻm (6,5 % va 2,5 % punktga kamaygan), Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan 1 947,2 mlrd. soʻm (1,0 % va 0,1% punktga koʻpayish) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi (2.9-rasm).



2.9-rasm. 2020-yilda yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar⁶⁶

⁶⁶ Manba: <http://www.stat.uz> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,6 %ni tashkil etdi.


Bundan tashqari, Volkswagen Group (Germaniya) Jizzax EIZda investitsiya loyihasini ishga tushirdi. Biroq, mamlakatimizning dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi, chegaralarning yopilishi va qo'shni davlat organlari tomonidan qabul qilingan boshqa cheklovchi choralar sababli investitsiya loyihalarini kechiktirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarda kuzatilib, 2019-yilga nisbatan 63,2 %ga ko'paydi. Bunday yuqori o'sishga sement ishlab chiqarishni tashkil etish, elektron gaz hisoblagichlar, kalava, infuziya va inyeksion qorishma ko'rinishidagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, Auminzo-Amantoy konlari hududida oltin mavjud konlarda qazib chiqarish va qayta ishlash bo'yicha qurilish ishlari I-II bosqich, "Muruntau" karyeriga qayta ishlov berish (V navbat) I bosqich, texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha majmua qurilishi (I-II bosqichlar), Toshkent metall zavodi qurilishi va boshqa yirik investitsiya loyiholari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar 2019-yilga nisbatan 32,7 % ga kamaydi. Buni o'tgan yilda amalga oshirilgan sement ishlab chiqarishini tashkil etish, "Tashkent city" XIM hududida "Congress Hall" va besh yulduzli Hilton mehmonxonasining qurilishi, metallni qayta ishlash zavodi qurilishi, to'qimachilik fabrikasi qurilishi va boshqa loyihalar bo'yicha investitsion faollik bilan izohlash mumkin.

2020-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibini tahlil qilsak, bunda eng yuqori ko'rsatkich qayta ishlash sanoatiga tegishli bo'lib, jami investitsiyalarning 42 %ini tashkil etdi. Undan so'ng tog'-kon sanoatiga jami investitsiya hajmining 18 % qismi ajratildi. Keyingi o'rinlarda elektr, gaz bilan

ta'minlash, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga xorijiy investitsiya va kreditlar ajratildi (2.10-rasm).



2.10-rasm. 2020-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi⁶⁷

2021-yil bilan solishtirganda, 2020-yilda ham xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ikkala yilda ham tog'-kon sanoatiga katta miqdorda xorijiy investitsiya kreditlar kiritilgan.

2021-yil yakuniga ko'ra, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd. dollarni tashkil etdi (yillik prognozga nisbatan 113% bajarildi), shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd. dollarga yetdi (2020-yil ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish sur'ati 110%).

⁶⁷ Manba: <http://www.stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd. dollarga yoki prognozga nisbatan 117%ga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2020-yilga nisbatan 124 foizlik o‘sish bilan 8,2 mlrd. dollar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘larining o‘zlashtirilishi 2,1 mlrd. dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etdi.

2021-yilda TTXI va kreditlar hisobidan tarmoq korxonalari tomonidan 3,8 mlrd. dollar yoki prognozga nisbatan 103 foizga, hududiy loyihalar bo‘yicha esa 5,2 mlrd. dollar yoki prognozga nisbatan 130 foizga o‘zlashtirildi. Investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, IT-texnologiyalar, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga to‘g‘ri keldi.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb etishda huquqiy asoslarga taalluqli hozirgi vazifa – hukumatning xorijiy investitsiyalar bo‘yicha uzoq muddatli barqaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potensial xorijiy investorlarga yetkazishdan iboratdir.

Mamlakatimiz ichki ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan iqtisodiyot tuzilmasini bosqichma-bosqich takomillashtirish, tabiiy-iqtisodiy resurslarimizdan oqilona va samarali foydalanishga asoslangan tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘lamini kengaytirish iqtisodiyotimizning yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘sishini va muvozanatlashgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni ta‘minlashning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya‘ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqiyosda jalb etish, xorijiy investorlarni o‘z mablag‘larini mamlakat iqtisodiyoti

uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

2.3. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili (Qurilish sanoat korxonalari misolida)

Bankning investitsiya faoliyati – bankning pul va boshqa zaxiralari qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, korxonalar nizom fondiga, noyob to‘plamlar, qimmatbaho metallar va boshqa obyektlarga sarmoya qo‘yish bo‘yicha bank faoliyatidir. Bu obyektlarning bozor qiymati o‘sish hamda bankka foizlar, dividendlar, olib sotishdan olingan, foyda va boshqa bevosita hamda bilvosita daromad keltirish xususiyatiga ega.

Tijorat banklarining investitsiyalari kredit ssudalaridan bir qator muhim mezonga ko‘ra farqlanadi.

Birinchidan, kredit ssudalari nisbatan qisqa muddat ichida mablag‘lardan foydalanishni, ularni belgilangan muddatda ssuda foizining to‘lovi bilan qaytarish shartini ko‘zda tutadi. Investitsiyalar esa bank tomonidan qo‘yilgan mablag‘lar o‘z egasiga qaytishidan avval nisbatan uzoq muddat davomida mablag‘lar kelib tushishini ko‘zda tutadi.

Ikkinchidan, bank kredit berishda ssuda bitimining tashabbusi bilan qarz oluvchi chiqadi. Investitsiyalashda esa qimmatli qog‘ozlar bozorida eng jozibador moliya aktivlarini sotib olishga istalgan tijorat banki tashabbuskor bo‘ladi.

Uchinchidan, kredit bitimlarida bank bosh kreditorlardan biri bo'lib, investitsiya operatsiyalari davrida u korxonalar va tashkilotlar qimmatli qog'ozlariga mablag'larini qo'yadi.

To'rtinchidan, bank kredit berishi bankning qarz oluvchi bilan shaxsiy munosabatlariga bevosita bog'liq. Investitsiya qo'yish esa mamlakatning ko'p sonli korxonalari va tashkilotlarining turli xildagi qimmatli qog'ozlari vositasida tijorat banklarining shaxsidan qat'i nazar, faoliyatini tashkil qiladi.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadini belgilaydigan asosiy omillar – daromad olish hamda o'z aktivlarining ma'lum bir guruhi likvidligini ta'minlashning ehtiyojidir.

Investitsiyalarni iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasiga jalb qilish bo'yicha respublikada yaratilgan hozirgi sharoit amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmini keskin ko'payib borishiga, davlat kafolatisiz xorijiy kreditlarini, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni kiritishga imkon bermoqda. Bu borada olib borilayotgan islohotlar investitsiyalarni respublikamizga yanada ko'proq oqib kelishiga va respublikani xalqaro hamjamiyatga yanada tezroq integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Chet el investitsiyalari bilan bir qatorda ichki investitsiyalarning ulushi takror ishlab chiqarish jarayonlarida faollashuvi sezilmoqda.

Ichki investitsiyalarni ko'paytirish va investorlarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa, qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirish maqsadida "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tashkil etilgan. Ushbu bankning tashkil etilishi orqali mamlakatimizda mikrosarmoyalash institutlarining yaratilishiga asos solindi.

“Mikrokreditbank”ning asosiy vazifalari etib:

- ✓ kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik subyektlariga, fermer va dehqon xo‘jaliklariga o‘zlarining ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun mikrokreditlar berish, keng ko‘lamdagi bank hamda konsalting xizmatlari ko‘rsatish;

- ✓ mikrokreditlar berish hamda mikrolizing yo‘li bilan mikrofirmalar, oilaviy biznes va kasanachilik rivojlanishini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash hisobiga tadbirkorlik sohasi kengayishiga ko‘maklashish;

- ✓ qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan biznes-rejani, uning moliyaviy holatini, kreditni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarni ta‘minlash manbalarini sinchiklab tahlil etish asosida mikrokreditlarning qaytarilishini ta‘minlash;

- ✓ mikrokredit berish va mikrolizing bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari hamda yetakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investitsiya va grantlarini jalb etish, ayniqsa, qishloq joylarda, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni ta‘minlaydigan filiallar va mini-banklar tizimi orqali moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda mikromoliyaviy institutlar butun jahonda xalq farovonligi yo‘lida mikrokredit va mikrolizing xizmatlari ko‘rsatish borasida faol xizmat qilmoqda. “Mikrokreditbank” o‘z bilimi, qobiliyati, hunarini ishga solishni istaydigan har bir fuqaroni, tadbirkorlikni, turmush sharoitini yaxshilashni xohlaydigan har bir insonni sarmoyalash tashkiloti bo‘lib xizmat qilishga mo‘ljallangan. Mazkur bank hamkorlikni boshlagan joylarda, avvalo, tadbirkorlik, yaratuvchanlik, bo‘lajak korxonalar hamda bozor tamoyillari uchun imkoniyat tug‘iladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning real sektori jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda.

Mamlakatni jahon hamjamiyatidagi o'rnini real sektorning rivojlanish darajasi va raqobatdoshligi belgilaydi. Iqtisodiy atamalarda iqtisodiyotning real sektoriga turlicha ta'rif beriladi va quyida bir nechta bilan tanishish mumkin.

1. Iqtisodiyotning real sektori (IRS) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma'lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik, o'rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyot sektori – iqtisodiyotni yirik tarkibiy qismi bo'lib, u turli ishlab chiqarish sohalarini o'xshash tavsiflar iqtisodiy maqsadlar, funksiyalari orqali birlashtiradi va nazariy hamda amaliy jihatdan iqtisodiyotni boshqa qismlaridan farq qiladi.

3. Iqtisodiyotning real sektori – kommersiyaga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi, jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik, o'rta va yirik korxonalar yig'indisidir.

Demak umumiy qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotning real sektori bu – tovarlar hamda moddiy shakldagi boylik va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari yig'indisi tushuniladi.

Rivojlangan iqtisodiyotda tijorat banklari o'z faoliyatini doimiy ravishda o'sib boruvchi raqobat sharoitida amalga oshiradilar. Ular o'zaro va boshqa kredit-moliya muassasalari bilan, shu jumladan, oxirgi vaqtda taklif etilayotgan har xil yangi xizmat turlarini amalga oshiruvchi xorijiy banklar bilan raqobatlashadilar.

Qattiqqo'l raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri investitsion faoliyat hisoblanadi. Investitsiya xususiy, davlat korxonalari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlariga uzoq muddatga qo'yilgan mablag'lardir. Tijorat banklari krediti investitsiyadan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

✓ birinchidan, bank kredit berganda, bank mablag‘larini nisbatan qisqa vaqt ichida foydalanishga beradi va kredit summasi hamda u bo‘yicha foiz stavkasini o‘z vaqtida qaytarishni talab qiladi. Investitsiyada esa qo‘yilgan mablag‘lar (qo‘yilmalar) hali o‘z egasiga qaytib kelishidan oldin uzoq davr mobaynida bankka daromad olib kelishini bildiradi;

✓ ikkinchidan, bank kreditida kredit munosabatlarini yuzaga keltirish bo‘yicha tashabbus qarz oluvchi tomonidan o‘rtaga tashlanadigan bo‘lsa, investitsiyada esa qimmatli qog‘ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banki tashabbus ko‘rsatadi;

✓ uchinchidan, bankning kredit shartnomasida bank kam miqdordagi kreditorlar orasida asosiydir. Investitsion shartnomalarda esa tijorat banki ko‘plab kreditorlardan biridir;

✓ to‘rtinchidan, bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita kredit shartnoma orqali bog‘langan bo‘lib, ularning faoliyatiga hech kim aralashmaydi. Investitsiyada esa turli xil qimmatli qog‘ozlar orqali korxona, tashkilotlarning faoliyati bilan bankning faoliyati bog‘lanib ketadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilikligi va likvidlilikini (bankning faoliyati bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish qobiliyatini ta’minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikini ta’minlaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatbaho qog‘ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, davlat qarzdorlik majburiyatlari, depozit sertifikatlar, veksell va boshqalarga mablag‘larini qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Alohida olingan davlatlarda bank tizimining rivojlanishi va banklar o‘tkazadigan operatsiyalarning turlari va ko‘lamiga qarab ularning investitsion faoliyati turli yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lishi va shu

operatsiyalar turlari bo'yicha olinadigan daromad salmog'i ham turli xil bo'lishi mumkin. Tijorat banklari investitsion faoliyatining daromadlilik darajasiga bir qator iqtisodiy va tashkiliy omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar orasida asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ✓ davlatning barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyoti;
- ✓ tovar ishlab chiqarish va xizmat sohasidagi turli mulkchilik shakllarining mavjudligi, shu jumladan, bank faoliyatida xususiy va aksioner mulk shakllarining ustuvorligi;
- ✓ kredit-moliya tizimining bir me'yorda va aniq faoliyat yurituvchi strukturasining mavjudligi;
- ✓ qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy va rivojlangan muassasalarining mavjudligi;
- ✓ qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari faoliyatini nazorat qiluvchi qonuniy aktlar va tartiblarning mavjudligi;
- ✓ tijorat banklarining xalqaro investitsion faoliyatini yuritish amaliyotida bo'lgan yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar muomalasining amal qilishi;
- ✓ investitsion faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozori uchun mo'ljallangan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi. ularni tayyorlash va boshqalar.

Hozirgi kunda iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, zamonaviy texnika va yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni tashkil qilish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu avvalambor aholi bandligi va daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini rivojlantirish hamda zarur sharoitlarni yaratib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi olti yilda mamlakatimiz aholisi 5 million 500 ming nafarga o‘shib, 36 milliondan oshdi. Ularga munosib turmush sharoitlari yaratish maqsadida turar joylar qurilmoqda.

Xususan, 2017-yildan boshlab, 326 mingta yangi uylar foydalanishga topshirilgan. Bu davrda uy-joy bilan ta‘minlash aholi jon boshiga 18 foizga oshgan. Sohaga bozor tamoyillari joriy qilingani natijasida yuzlab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Yig‘ma temir-betonli ko‘p qavatli uylar quruvchi 11 ta yirik klaster paydo bo‘ldi. Tadbirkorlarga sharoit yaratilgani tufayli sement, gazoblok, kafel, keramogranit ishlab chiqarish ko‘payib, ularning narxi ancha arzonlashdi.

Umuman, joriy yilda uy-joy qurish hajmini 1,5 baravarga oshirib, 90 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari bu ishlar har bir viloyat iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘shishiga katta turtki berishini ta‘kidlaydi. Shu bois aholi va quruvchilar uchun 4 ta yo‘nalishda yangi yengillik va imkoniyatlar belgilandi.

Birinchidan, ko‘proq aholini qamrab olish maqsadida rasmiy daromadi yetarli bo‘lmagan aholiga ham ipoteka krediti olish imkoni yaratiladi. Ikkinchidan, ularning to‘lov qobiliyatini aniqlashda bank kartasidagi aylanma, ijara, kommunal va boshqa xarajatlarga to‘langan pullari ham hisobga olinadi.

Dastlabki badalni ko‘proq to‘lagan fuqarolar bankdan arzonroq kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Subsidiyaga ajratilgan mablag‘larni tezroq ishlatish uchun subsidiya xabarnomasining amal qilish muddati 12 oydan 4 oyga tushiriladi.

Shu bilan birga, bu oylar davomida sertifikatidan foydalanmagan fuqarolarga subsidiya olish uchun yana qayta murojaat qilish huquqi beriladi. Investitsiya faoliyatini iqtisodiy boshqarish yo‘li bevosita moliyaviy dastaklarni ishga solish bilan bog‘liq bo‘lib, bu, o‘z navbatida, investorlarning investitsiya loyihasini amalga oshirishda manfaatdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi (2.11-jadval).

2.11-jadval

Toshkent viloyatida 2022-2023 yillarda amalga oshiriladigan ichki investitsiya loyihalari⁶⁸ (mlrd so'm)

№	Shahar va tuman nomi	Loyiha tashabbuskori	Loyiha qiymati	Shundan	
				O'z mablag'i	Bank krediti
1	Bo'stonliq tumani	"Mountain view village" MCHJ	30240	30240	
2	Zangiota tumani	"Hi tech dizayn" MCHJ	41000	26000	15000
3	Ohangaron tumani	"Ohangaron imkon qurilish" MCHJ	7500	6490	1010
4	Yangiyo'l shahar	"New way media" MCHJ	4000	3000	1000
5	Nurafshon shahar	"Smart house"	15000	15000	

Investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish doimo investorlar bilan bog'liq bo'lishi ularning moliyaviy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan loyihalarda yuzaga chiqarishga qaratiladi. Bunda investitsiya loyihasini moliyalashtirish orqali yuzaga keladigan investitsiya faoliyatidan uning har bir ishtirokchilari singari, albatta, davlat va jamiyat samara ko'rishi ham talab etiladi⁶⁹.

Eski uylar ko'p bo'lgan shaharlarda renovatsiya dasturiga talab ortyapti. Davlatimiz rahbari buning huquqiy poydevori bo'lishi kerakligini ta'kidlab, "Renovatsiya to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqishni taklif etdi.

Yana bir masala – bugungi kunda ko'p joylardagi qurilishlar ularning infratuzilmasi quvvatiga mutanosib emas. Misol uchun,

⁶⁸ Toshkent viloyati hokimligining iqtisodiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁶⁹ Haydarov, U. A. (2020). Financial management system, tools, sources of investment activities and factors. // ISJ heoretical & Applied Science, 01 (81), Page 14-18.


Toshkent shahrining aholisi har yili 100 mingga ko‘paymoqda, yiliga qo‘shimcha 20 ming xonadonga ehtiyoj bor. Shahar oqova suv tozalash inshootlari quvvatidan ancha ortiq yuklama bilan ishlayapti. Shuning uchun endi suv, oqova, elektr, gaz, yo‘l infratuzilmasini yaxshilashga investor-developerlar ham jalb qilinishi kerak.

Bu yil 90 mingta uy-joy rejasi qurilish materiallari korxonalari uchun katta bozor. So‘nggi yillarda dunyoda ham, mintaqamizda ham seysmik faollik kuzatilyapti. Shu bois 1-maydan boshlab, qurilish mo‘ljallangan maydonda muhandislik-geologik ekspertiza o‘tkazish majburiy bo‘lishi, seysmik xavfsizlik talablari yuqori bo‘lgan bino-inshootlar faqat reytingi baland korxonalar tomonidan qurilishi belgilandi.

Shuningdek, 2023-yilgi ipoteka dasturi bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda: “Ipoteka – ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan muhim masala. Shuning uchun qurilish ishlarini jadallashtirib, xalqimizga uylarni sifatli qilib topshirish kerak”⁷⁰, – dedi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Shu asnoda, Toshkent viloyatining Piskent tumanida ko‘plab uy-joylar qurilmoqda. “Hi-tech stroy” qurilish tashkiloti 3 gektar maydonni tashkil etadi. Ushbu korxona o‘z mablag‘larini jalb qilish ya‘ni ichki investitsiya va tijorat banklaridan kredit olish orqali o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu geografik joylashuv ekologik toza maydon, havosi yaxshi va shahar markazida joylashgan, shuningdek, maktab, bog‘cha, bozor va ko‘ngil ochar maydon va do‘konlarga qulayligi bilan ajralib turadi (2.11-rasm).

⁷⁰ Mirziyoyev Sh.M “Aholini uy-joy bilan ta‘minlash ko‘lami yanada kengayadi” Yangi O‘zbekiston gazetasidagi nutqi, 5-aprel 2023-yil.



2.11-rasm. Uy-joylarni foydalanishga topshirish⁷¹ (umumiy maydoni ming kv.m)

Qurilish jarayoni eng talabchan mijozlarning talablariga javob beradigan, ishonchli va sifatli qurilish materiallari ishlatgan holda barpo etilmoqda.

Ushbu korxona o'z mablag'larini jalb qilish va bankdan kredit olgan holda o'z faoliyatini boshlagan. Tijorat bankidan 3103634 ming so'm miqdorda kredit hamda ichki investitsiya miqdori 1230546 ming so'm pul mablag'larini jalb qilgan holda ish jarayonini boshlagan (2.12-jadval).

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "O'zbekistonda qurilish" statistik to'plami., T.: 2022

Korxona rezyumesi⁷²

1	Korxona nomi:	“Hi-tech stroy” MCHJ
2	Korxonaning yuridik manzili:	O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Piskent tumani, M.Mirob ko‘chasi 2 uy
3	Asosiy faoliyat turi:	Uy-joy qurilishi
4	Bank rekvizitlari:	MFO 00444, STIR 304972971. Hisob raqami 20210000200228989001
5	Korxona ma’muriyatining F.I.Sh., telefon:	Boshqaruv raisi– Karimov M.O. Bosh hisobchi – Karimova.L.I.

Shu jumladan, mashina, uskunalar uchun 491713 ming so‘m jalb qilingan. Yangi uy-joylar har biri 5 qavatdan iborat bo‘lib, jami 90 ta xonadonga mo‘ljallangan.

Zamonaviy uy-joy qurilishida yangicha texnologiyalardan foydalanmoqda. Aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida liftlar, mashina qo‘yish uchun garajlar, bolalar o‘yingohlari, ko‘ngilochar maydonlar barpo etilmoqda.

“Hi-tech stroy” korxonasi ushbu davrga qadar bir qancha tayyor uy-joylarni aholiga topshirgan. Shu jumladan, 5 qavatli binolardan 4 ta, 4 qavatli binolardan 6 ta hamda 9 qavatli binolardan 2 tasini qurib topshirgan (2.13-jadval).

⁷² O‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.13-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar⁷³ (amaldagi narxlarda; mlrd.so‘m)


Hududlar	2020	2021	2022	2023-Q1
O‘zbekiston Respublikasi	210195,1	239552,6	269857,5	56557,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7089,8	8110,7	10099,8	2076,7
Andijon	9622,6	11176,6	14758,6	2798,7
Buxoro	12183,9	20528,3	21138,0	4193,4
Jizzax	12545,4	9233,6	10763,1	1820,8
Qashqadaryo	20557,6	17359,1	16181,5	3083,9
Navoiy	15688,4	15020,1	19396,	3671,6
Namangan	12007,2	12982,0	14348,2	3141,4
Samarqand	14656,4	15641,6	21955,2	5045,6
Surxondaryo	10068,2	12037,8	11507,3	2977,4
Sirdaryo	7191,9	8051,8	12574,7	4293,1
Toshkent	21148,6	28113,6	34954,7	6824,3
Farg‘ona	11040,0	12625,2	15396,7	3893,9
Xorazm	5391,8	8292,0	8806,6	1668,2
Toshkent sh.	50371,3	58172,7	56725,8	11058,1

Ushbu uy-joylarda bugungi kunda yaratilgan keng sharoitlardan foydalangan holda aholi qulay va shinam xonadonlarda istiqomat qilmoqda.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatining asosiy kapitalini ko‘paytirishga 34954,7 mlrd.so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sinh sur‘ati 108,2 foizni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 11514,0 mlrd.so‘mi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining “O‘zbekistonda qurilish” statistik to‘plami. – T., 2022.

kapitalga investitsiyalar 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 11784,3 ming soʻmni tashkil etdi (2.12-rasm).




2.12-rasm. 2022-yil uchun hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi⁷⁴

2022-yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan koʻp ulushi, yaʼni 50,7 foizi viloyatning 5 ta hududi hissasiga, jumladan, Olmaliq shahri (27,5 %), Bekobod shahri (9,7 %), Qibray tumani (8,0 %), Chirchiq shahri (6,3 %) va Zangiota tumani (5,6 %) hisobiga toʻgʻri keldi.

Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi. Jumladan, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Bekobod shahrida – 3,0 m., Boʻka tumanida – 2,5 m., Quyi Chirchiq tumanida – 2,3 m., Ohangaron tumanida – 164,9%, Yangiyoʻl

⁷⁴ Toshkent viloyati Statistika boshqarmasining “Statistika axborotnomasi” 2023-yil.

shahrida – 156,6%, Toshkent tumanida – 150,0% o‘shish kuzatildi (2.13-rasm).




2.13-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha⁷⁵

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 10160,6 mlrd.so‘m (jami investitsiyalar hajmida 29,1 %) tashkil etdi. Tog‘-kon sanoatida – 9423,5 mlrd.so‘m (27,0 %), uy-joy qurilishida – 3050,7 mlrd.so‘m (8,7%), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 2440,5 mlrd.so‘m (7,0 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta‘minotida – 378,6 mlrd.so‘m (1,1 %), san‘at, ko‘ngil ochish va dam olishda – 345,1 mlrd.so‘m (1,0 %), tashish va saqlashda – 780,3 mlrd.so‘m (2,2 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilishda – 556,0 mlrd.so‘m (1,6 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatida – 484,8 mlrd.so‘m (1,4 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda – 314,5 mlrd.so‘m (0,9 %), ta‘limda – 984,1 mlrd.so‘m (2,8 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 259,6 mlrd.so‘m (0,7 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

⁷⁵ Toshkent viloyati Statistika boshqarmasining “Statistika axborotnomasi” 2023-yil.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1522,7 ming kv.m. bo'lgan 6218 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 1229,2 ming kv.m. bo'lgan 4664 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida 12143,8 mlrd.so'mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 %ni tashkil etdi (2.14-rasm).



2.14-rasm. Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti⁷⁶ (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 487,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 11656,5 mlrd.so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 %ni tashkil etdi. Xulosa o'rnida yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Toshkent viloyati statistikasi kesimida tashqi iqtisodiy aloqalar, xususan, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari dinamikasi sezilarli darajada yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek, yangidan yangi yaratilayotgan sharoit va islohotlar natijasida viloyat va respublika miqyosida yildan yilga eksport va import hajmi, ichki va tashqi investitsiyalar yuqori darajada jalb qilinmoqda.

⁷⁶ Toshkent viloyati Statistika boshqarmasining "Statistika axborotnomasi" 2023-yil.

O‘zbekistonda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari asosida mamlakatimiz investitsion jozibadorligi uchun keng ko‘lamda ishlar bajarilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investorlarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti bugun jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatimiz eksport salohiyati yildan-yilga oshmoqda, tashqi bozorga xomashyo emas, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Aytish kerakki, O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator qulayliklarga ega. O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashishi, tabiiy resurslarning tarkibi va zahirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning investitsion salohiyatini oshirish masalasiga iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash nuqtayi nazaridan katta e‘tibor qaratilmoqda.

Investitsiyalarning mavjudligi va yetarli darajadali – iqtisodiyot rivojlanishini asosiy shartidir. O‘zbekistonning kelajakda rivojlani-shining asosiy omillaridan biri – jalb etilgan va samarali o‘zlashtirilgan investitsion resurslar miqdori hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va oqilona foydalanishga imkon beruvchi xo‘jalik mexanizmini shakllantirish hamda investitsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish – davlatimizning eng asosiy strategik vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda mustaqillik yillari davrida olib borilgan iqtisodiy islohatlar tufayli qulay investitsion sharoitlar yaratilgan. Mamlakatda

kapital investitsiyalarning kengayishiga katta e'tibor berilmoqda, ya'ni asosiy kapitalni qaytadan ishlab chiqarishga yo'naltirishdir.

Bugungi investitsion siyosat kredit qo'yilmalarni jalb etishni ko'paytirishga qaratilgan bo'lib qolmay, balki to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarga qaratilgandir. Ular xususiy sektor faotiyatini aktivlashtiradilar, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradilar, yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni yengillashtiradilar.

O'zbekiston bozoriga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarni yanada jalb etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish;

- ✓ to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- ✓ qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining ishonchligini oshirish;

- ✓ yirik ishlab chiqarish korxonalari qimmatbaho qog'ozlarini birlashmalar, investitsion fondlar, kompaniyalar, banklar ishtirokida xalqaro fond bozorlarida joylashtirish va hokazo.

Shu bilan birga O'zbekistonda banklar faoliyat yuritish tartibini qayta ishlab chiqish kerak va banklarga investitsion faoliyatni kengaytirish bo'yicha masalalarni yuklash zarur. Birinchi navbatda investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tashkil qilish va ekspertiza qilish bilan shug'ullanadigan tijorat banklarining maxsus bo'limlarini kuchaytirish kerak. Tijorat banklari rahbarlari investitsion siyosat olib borish mexanizmini yanada chuqur o'rganishlari zarur.

Banklar investitsion jarayonlarining yanada faolroq ishtirokchilari bo'lib qolishlari kerak.

Investitsion siyosatni jadal olib borilishi nafaqat iqtisodiy o'sish va tizimni isloh qilishning muhim omillari, balki sherikchilik aloqalarini

oʻrnatish, ishbilarmon doiralar bilan hamkorlik qilish, turli moliyaviy institutlar bilan aloqalar oʻrnatish va davlatlararo aloqalar samaradorligini oshirishga erishishdir.

Biz bilamizki, investitsiya iqtisodiy oʻsish omili sifatida moliyaviy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim dastaklardan biri boʻlib hisoblanadi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, Oʻzbekistonda investitsiya kiritish jarayonlari tezlashishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Oʻzbekiston iqtisodiyoti yanada kuchliroq, barqarorlashgan, jahon bozorida oʻz mustahkam oʻrniga ega boʻlmoqda, buning asosi esa doimiy dinamik oʻsishdir.

Xalqaro amaliyot investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullari ancha oldin ishlab chiqilganligi va ularning iqtisodiy hayotda keng qoʻllanilayotganligini tasdiqlaydi. Mazkur usullar har qanday investitsiya loyihasining daromadlilikini, samarasini, foydalilikligini hamda ularning jalb etuvchanligini aniqlab bera oladi. Lekin, ayrim hollarda, investitsiya loyihalarini baholashda barcha usullarni qoʻllash zaruriyati tugʻilmasligi ham mumkin. Bu usullarning qoʻllanilishi tahlil qilinayotgan har bir loyihaning oʻziga xos jihati va xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim ⁷⁷ (2.14-jadval).

2.14-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar⁷⁸ (amaldagi narx, foizlarda)

	2018	%	2019	%	2020	%	2021	%
Jami	124231,3	100	195927,3	100	210195,1	100	239552,6	100
Shu jumladan,: Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	7991,9	6,4	12199,1	6,2	14776,8	7,0	17727,9	7,4
Togʻ-kon sanoati	16036,7	12,9	20069,6	10,2	23534,5	11,2	21579,2	9,0

⁷⁷ Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”. Учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000., 142-стр.

⁷⁸ “Oʻzbekistonda qurilish” statistik toʻplami. – T., 2022.

Ishlab chiqaradigan sanoat	25741,2	20,7	50990,2	26,0	55943,3	26,6	52427,8	21,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	15390,0	12,4	21140,6	10,8	11171,8	5,3	18922,5	7,9
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi	2653,7	2,1	3864,9	2,0	3529,3	1,7	5587,0	2,3
Qurilish	2550,6	2,1	7225,5	3,7	10105,4	4,8	18214,5	7,6
Ulgurji va chakana savdo	5080,0	4,1	7395,2	3,8	13256,7	6,3	9947,9	4,2
Tashish va saqlash	8487,5	6,8	14047,7	7,2	14132,7	6,7	16013,1	6,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1716,3	1,4	2665,6	1,3	2602,6	1,2	4113,1	1,7
Axborot va aloqa	1607,9	1,3	2679,0	1,4	8984,1	4,3	9019,4	3,8
Moliya va sug'urta faoliyati	1048,1	0,8	1822,5	0,9	3259,3	1,6	1961,9	0,8
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	1491,0	1,2	2687,0	1,4	3428,4	1,6	6880,1	2,9
Ta'lim	2913,6	2,4	5511,0	2,8	5402,1	2,6	7644,4	3,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2684,3	2,2	8156,6	4,2	6640,1	3,2	7409,9	3,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1900,1	1,5	3332,5	1,7	2279,1	1,1	3059,3	1,3
Barcha faoliyat turlaridan tashqari:								
Turar-joy qurilishiga investitsiyalar	19537,1	15,7	20309,6	10,4	19064,2	9,1	23970,6	10,0
Boshqa faoliyat turlari	7401,3	6,0	11830,7	6,0	12084,7	5,7	15074,0	6,2

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, 2018–2021-yil holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar amaldagi narxlarida va jamiga nisbatan foizlar ko'rsatkichi sezilarli darajada oshgan. 2018-yilda turar-joy qurilishiga investitsiyalar 19537,1 mlrd so'mni yoki jamiga nisbatan 15,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkichlar 23970,6 mlrd so'm va 10,0

foizni ko'rsatmoqda. 2018–2021-yillardagi qurilishdagi investitsiyalarga 1,2 barobar miqdorda sarmoya kiritilgan.

Investitsiya loyihasini tahlil etish nazariyasi umumiy holatda ishonchli va obyektiv xulosaga olib keluvchi analitik usullar va ko'rsatkichlarining muayyan tizimidan foydalanishni ko'zda tutadi. Investitsiyalarning absolyut jalb etuvchanligi to'g'risida gapirganimizda, kompaniyaning boshqa investitsiya imkoniyatlarini amalga oshirish chegaralangan, ajratilgan holatdagi loyiha sifatida har qanday loyihani ko'rib chiqish kerakligini nazarda tutamiz. Biroq real hayotda taqdim etiladigan ko'pchilik investitsiya loyihalari ziddiyatli va qarama-qarshi hisoblanadi, ya'ni firmaning bir va boshqa maqsadiga erishishning turli xil yo'llarini nazarda tutadilar. Ayrim hollarda, masala faqat investitsiyalarning nisbiy jalb etuvchanligi to'g'risida borishi mumkin.

Bundan tashqari, tahlil etilgan investitsiya loyihalari bilan bog'liq bo'ladigan harakatlar va natijalarni ham nazarga olmoq zarur bo'ladi. Jahon amaliyotida investitsiya loyihalarini baholashning diskontlashga asoslangan usullaridan foydalanish 80-90-yillardan boshlab keng qo'llanilgan va o'zining ijobiy natijalarini bera olgan. Ushbu usullardan, asosan, bank ekspertlari keng foydalanishgan. Masalan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bu usullar yordamida loyihalarni baholashning o'z versiyalarini ishlab chiqqanlar. Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa ko'plab nufuzli tashkilotlar tomonidan ham o'z yo'nalishi va xususiyatiga ega bo'lgan baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan. Hozirda O'zbekiston Respublikasida ham ushbu usullardan, asosan, tijorat banklarida foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda, amaliy mahoratlar egallanmoqda va ular o'z samarasini bermoqda.

Masalan, Milliy bank, Asaka bank, Agrobank, Ipak yo'li banklarida investitsiya loyihalarini baholashda ulardan samarali foydalanilmoqda. Bunda, ayniqsa, diskontlash usullarini YuNIDO dasturi

asosida tuzilgan kompyuter versiyalari orqali qo'llash, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya kredit agentligi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Jahon banki kabi ko'plab Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kredit liniyalari mahalliy tijorat banklari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda keng ishtirok etmoqdalar. Bu borada Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki yetakchi o'rin tutadi. Bunda ushbu investitsiya loyihalarining tahlili xuddi ana shu diskontlash usullari yordamida olib borilmoqda. Bu borada mamlakatimizdagi yirik hisoblangan Milliy bank va Asaka banklarining orttirgan tajribalarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Biroq, loyihalarni diskontlash asosida baholashning YuNIDO dasturi asosida tuzilgan kompyuter versiyalarini respublikadagi barcha banklarda, sug'urta kompaniyalarida, lizing kompaniyalarida va boshqa moliyalashtiruvchi tashkilotlarda ham qo'llash keng yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Odatda, mahalliy banklar tomonidan investitsiya loyihalarini baholashda diskontlashga asoslangan usullar ichida eng ko'p qo'llaniladigan usul – sof joriy qiymat usulidir.

Pul mablag'larini (investitsiya loyihalari bo'yicha pul oqimlarini) diskontlashga asoslangan baholash usullaridan biri investitsiyalarning sof joriy qiymatini aniqlash usuli hisoblanadi (NPV).

Sof joriy qiymat – investitsiyalash obyektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va o'zgarmas foiz stavkasi (me'yori)da olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarining diskontlashtirilishi yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati shundaki, yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltiriladi va u oqibatda o'zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskontlashtirilgan daromad (diskontlashtirilgan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq) sifatida

namoyon etadi. Shuning uchun ham sof joriy qiymat muayyan vaqt oralig'i bo'yicha xarajatlar va daromadlarning farqlanishi bilan izohlanadi.

Ayrim zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda bu usul sof keltirilgan daromad⁷⁹, sof keltirilgan qiymat⁸⁰ yoki sof zamonaviy qiymat⁸¹ deb ham ataladi. Bu usul ikkita xususiyatdan kelib chiqadi:

- ✓ har qanday firma o'z boyligini (qiymatini) maksimallashtirishga (ko'paytirishga) intiladi (harakat qiladi);

- ✓ turli xil vaqtdagi xarajatlar bir xil qiymatga ega bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqib, investitsiyalarning muqobil variantlarini to'g'ri baholash uchun pulning o'z vaqtidagi qiymati hisobga olinishi qat'iy talab etiladi. Bunda har bir investitsiya qiluvchi, shuni nazarda tutish kerakki, pul mablag'larining tushumi vaqt bo'yicha taqsimlangan bo'ladi, shuning uchun pul mablag'lari k – koeffitsiyent yordamida diskontlanadi, ana shu koeffitsiyent (stavka) investor tomonidan qilingan xarajat uchun to'lanadigan summa hisoblanadi.

Amaliyotda, ko'p hollarda, firma u yoki bu investitsiyalarning foydaliligi, daromadliligi bo'yicha qarorlar qabul qilishga to'g'ri keladi. Buning uchun investitsiyalarning kutilayotgan kelgusi daromadlarning joriy qiymatini hisoblash va uni investitsiyalar hajmi bilan taqqoslash lozim. Bu esa sof keltirilgan qiymatning (NPV) mezoni hisoblanadi. Sof joriy qiymatning asosiy mezoni quyidagicha: investitsiyalashni amalga oshiring, agar investitsiyalardan kutilayotgan daromadlarning keltirilgan (joriy) qiymati investitsiyalar summasidan

⁷⁹ Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”: Учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000., 148-149 стр.

⁸⁰ Роберт С.ПИНДАЙК, Дениел Л.РУБИНФЕЛД Микроэкономика, КАЛИФОРНИЙСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ, БЕРКЛИ, пер. с англ., (Серия «Зарубежный экономический учебник»). – М.: Издательство Дело, 2001., 605-617 стр.

⁸¹ Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редаксии Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 2-част, 1995., 281-стр.

yuqori bo'lsa. Uni hisoblash quyidagicha: eng avvalo, kerakli diskontlash stavkasi tanlab olinadi, so'ngra loyihadan kutilayotgan daromadlarning joriy qiymati va ushbu loyiha uchun talab etilayotgan investitsiyalarning joriy qiymati hisoblab chiqiladi, keyin barcha daromadlarning sof joriy qiymatidan barcha investitsiyalarning sof joriy qiymati ayirib tashlanadi. Olingan farq, natija sof joriy qiymat hisoblanadi⁸². Bu usul ekvivalent kelgusi daromadlarning joriy qiymatini aniqlash uchun diskontlashning loyiq topilgan stavkasini aniqlashga imkon beradi.

Agar tahlil qilinayotgan investitsiya loyihasining diskontlash stavkasi kapital uchun foizlardan katta bo'lsa, demak sof joriy qiymat noldan katta bo'ladi (ijobiy) va bunda loyiha samarali, deb baholanadi. Agar bu stavka kapital uchun foizdan kichik bo'lsa, u holda loyiha samarasiz, deb topiladi va sof joriy qiymat nolga teng yoki undan kichik bo'ladi. Uni hisoblash formulasi quyidagicha⁸³:

$$NPV = \frac{CF_1}{(1+k)^1} + \frac{CF_2}{(1+k)^2} + \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 \quad (1)$$

bu yerda, NPV – sof joriy qiymat; k – diskontlash stavkasi; I_0 – boshlang'ich investitsiya; CF_t - t davr oxirida kelib tushgan pul oqimi (tushumi).

Diskont stavkasi, me'yori kapital bozoridagi uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foiz stavkasiga yoki ssuda oluvchi tomonidan to'lanadigan foiz stavkasiga haqiqatda teng bo'lishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda, diskont me'yori investorning o'zi uchun undan

⁸² Золотогоров В.Г., Инвестиционное проектирование: Учебное пос. – Минск: “Экоперспектива”, 1998., стр-143-144.

⁸³ Zoyirov L.S., Asamxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya., darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.

pasti (kichigi) besamar deb hisoblagan minimal foyda me'yori bo'lishi kerak.

Bu ko'rsatkich investitsiyalar hayotiyligi davrida haqiqatan ham daromadlilikni hisoblashdagi qo'llanilgan darajaga yetishishligini ko'rsatib beradi. Shu sababli u vaqt va daromadlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. U muqobil loyihalarni taqqoslashda katta rol o'ynaydi. Investitsiya loyihalari bo'yicha daromadlarni (tushumlarni) yillar bo'yicha bashorat qilayotganda loyiha bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tushumlarni imkoni boricha to'liq hisobga olish lozim. Agar loyihani amalga oshirish davri tugashi davomida aylanma mablag'larning bir qismining ishlatilishdan (oborotdan) holi bo'lishi (chiqarib olinishi) yoki asbob-uskunalarining tugatilish qiymati ko'rinishida mablag'lar tushumi rejalashtirilayotgan bo'lsa, u holda ular davrlar bo'yicha daromadlar ko'rinishida hisobga olinishi lozim.

Investitsiya loyihasi samaradorligini sof joriy qiymat (NPV) asosida hisoblanishi turli vaziyatlarda iqtisodiy ratsional qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Shu sababli bu usul jahon amaliyotida keng tarqalgan. Investitsiya loyihalarini sof joriy qiymat usuli asosida baholashdan olingan natija, ya'ni sof joriy qiymat ijobiy miqdorga ega bo'lsa ($NPV > 0$), u holda investitsiyalarning rentabelligi diskont miqdoridan yuqori bo'ladi, $NPV = 0$ holatda loyiha rentabelligi diskont stavkasiga (minimal qoplash me'yoriga) teng bo'ladi, agar $NPV < 0$ investitsiyalardan keladigan daromad muqobil xarajatlardan yuqori bo'ladi va bunda ko'rib chiqilayotgan loyihaga investitsiya qilish foydali hisoblanadi⁸⁴.

Birinchi ikki holatda (ya'ni $NPV > 0$ va $NPV = 0$ bo'lganda) investitsiya loyihasini amalga oshirish mumkin. Bunda birinchisi investor

⁸⁴ Avinach Dixit, Robert Pindyck, Investment Under Uncertainty (Princeton, NJ: Princeton University Press, 1994).

kapitalining o'sishi ta'minlanishini ko'rsatsa, ikkinchisi ko'paymasligini ham, kamaymasligini ham bildiradi.

Uchinchi holatda investitsiya loyihasini amalga oshirishni rad etishga to'g'ri keladi. Sababi, bunday holat loyihadan kutiladigan daromad, natijani olish imkonini bermaydi. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilishda muqobil loyihalarning samaradorligiga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Buning uchun investitsiyalarning muqobil variantlari taqqoslama baholanishi lozimdir. Xususan, Jahon bankida muqobil loyihalarni ko'rib chiqish butun loyiha sikli davomida loyihaviy tahlilning to'g'ri olib borilishining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Moliyaviy, institutsional va boshqa cheklanganlik sharoitida loyihaning sof joriy qiymati maksimal imkoniyatlarga ega bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun Jahon banki va qarz oluvchilar muqobil, o'zaro ziddiyatli variantlarni ko'rib chiqadilar⁸⁵. NPV ko'rsatkichi investitsiyalar hayotligi davrida, haqiqatan ham, daromadlilikni hisoblashdagi qo'llanilgan darajaga yetishishligini ko'rsatib beradi. Shu sababli u vaqt va daromadlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. U muqobil loyihalarni taqqoslashda katta rol o'ynaydi.

Ushbu bobda keltirilgan rejalarga muvofiq Toshkent viloyati bo'yicha iqtisodiyotning real sektor korxonalari bo'yicha tahlil ishlari olib borilgan. Investitsiya loyihalarini boshqarishning zarurligini quyidagilar bilan izohlash mumkin: moliyaviy nobarqarorlik sharoitida investitsiya loyihasi bo'yicha investitsiyalashning amalga oshirilishi uning samaradorligini pasaytirib yuborish xavfini kuchaytiradi. Bu investitsiya loyihasidan kutiladigan samarani ta'minlashda uni boshqarishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Investitsiya loyihalarini boshqarish vaqt jarayoni bilan bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida,

⁸⁵ Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редаксии Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 2-част, 1995., 281 стр.

vaqtning investitsiya loyihasi natijalariga ta'sirini maqbullashtirishda muhim o'rin egallaydi. Pulning vaqt mobaynida o'z qiymatini yo'qotib borishi investitsiya jarayonida kapitalning investor loyihadan kutgan samarani hosil qilishini ta'minlash yo'lida to'g'ri va optimal ishlatilishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi va oshiradi, investitsiya loyihasini amalga oshirishning yakuniy natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri inflyatsiya hisoblanib, u foiz stavkasining surunkali o'zgarib borishi, valyuta kursining o'zgarishi, talab va taklifning o'zgarishi, qonunchilikdagi nobarqarorlik kabilar natijasida yuzaga keladi, turli noaniqliklarning mavjudligi va ta'siri sabab har qanday investitsiya loyihasining kuchli va ojiz tomonlari bo'lishini hisobga olgan holda ularni moliyaviy tahlil va diagnostika qilish orqali loyihani amalga oshirish jarayonida duch kelinadigan risklar, inqirozli vaziyatdan chiqib ketish yuzasidan qarorlar qabul qilish lozim bo'ladi. Bunda ko'riladigan zararlardan o'zini-o'zi sug'urtalash amaliyotini kuchaytirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

III BOB. INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH BORASIDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARDAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

3.1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni yanada yaxshilashning xorij tajribalari

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zi-ning ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlari o‘shirishni ta‘minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish hamda bank-moliya faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda aholi jon boshiga nisbatan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi yildan yilga o‘shib bormoqda. Biroq tarmoqlarni modernizatsiyalash va qayta texnologik jihozlash bo‘yicha olib borilgan tadbirlarda, ularning bajarilishida va korxonalarni rivojlantirishda bir qator muammolarga ham duch kelinmoqda. Jumladan,:

- ✓ jahonda vujudga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va xomashyo narxining ko‘tarilishi natijasida investitsiya mablag‘larining belgilangan tadbirlarni qoplamasligi;

- ✓ xorijiy davlatlardan ajratiladigan kredit limitlarining chegaralanganligi, shuning uchun dasturdagi belgilangan investitsiyalarni o‘zlashtirish masalalarining qayta ko‘rib chiqilishi;

- ✓ pudratchilar tomonidan bajariladigan ishni juda qimmat bahoga belgilanishi, ajratiladigan mablag‘lari bu ishlarni qoplamasligi

sababli, ishni bajarish uchun mablag‘ni o‘zlashtirilmaganligi va shu kabidir.

Yuqoridagi muammolarni hal etishda milliy ishlab chiqaruvchilardan mavjud imkoniyatlarni hisobga olib, ichki va tashqi omillardan maksimal darajada foydalangan holda faoliyatni tashkil etish talab qilinadi.

Tuzilmaviy islohotlar hududlar, tarmoqlar va korxonalar bo‘yicha o‘tkazilib, ular o‘zaro bog‘liqdir. Hududlar bo‘yicha islohotlar aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda moliyaviy resurslarni samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmuyi. Tarmoqlar bo‘yicha islohotlar esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta‘minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste‘mol tovarlari, ish joylarga bo‘lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta‘minlashga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqda:

- ✓ eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;

- ✓ mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash;

- ✓ to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

- ✓ ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta‘minlash;

- ✓ mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va uni kuchaytirish;

- ✓ samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish sohasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg‘unlashtirish;

- ✓ iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

- ✓ aholining ish bilan bandligini hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

- ✓ hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

Tuzilmaviy islohotlarni olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy subyektlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitini juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishiga asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, jalb etilgan chet el investitsiyalar va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona tariflari bo'yicha imtiyozlar, zayom va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o'nlab qonuniy hujjatlar amal qilmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda (3.1-rasm).

Bundan ko'rinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo'lgan Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talafotlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urg'u berilmoqda. Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag'lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko'proq samarali va raqobatdosh ishlab chiqarishlarga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Milliy iqtisodiyotning real sektori sohalarining rivojlanishi ko'p jihatdan jalb etilayotgan investitsiyalarning hajmiga va bu o'z navbatida, mintaqalarning investitsion jozibadorlik darajasiga bog'liq.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rnini beqiyosdir (3.1-rasm).



3.1-rasm. Qulay investitsiya siyosatini olib borish tamoyillari⁸⁶

⁸⁶ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv Respublikaning har bir hududning rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi. Bu borada respublika hukumati tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirish maqsadida investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun hudud va investitsiya hajmi nuqtayi nazaridan imtiyozlar belgilangan.

Iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni amalga oshirish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishiladi:

- ✓ ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish miqdor va sifat jihatdan o'sadi;

- ✓ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqdorining o'sishi davlat budjetiga tushayotgan soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi;

- ✓ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqdorining o'sishi davlat budjetiga tushayotgan soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi;

- ✓ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi ish haqining ortishiga va aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi;

- ✓ jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh ishlab chiqarish orqali mamlakatning eksport salohiyati o'sadi.

Xususiyy investitsiyalar – xususiyy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati qisqa muddat ichida nafaqat yetakchi tarmoqlarni texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotda energiya samaradorligini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish, balki eksport salohiyatini yuksaltirish imkonini berdi.

Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari so'nggi o'n bir yil davomida 8 foizdan ortiq darajada saqlanib qolayotganligi, sanoat hamda xizmat ko'rsatish sohasi jadal rivojlanishi va xalqimiz farovonligining yanada yuksalib borishiga zamin yaratmoqda.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklolarni bartaraf etish, bu sohaga to'liq erkinlik berish, eg muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Xususan, barqaror iqtisodiy o'sish va mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko'p jihatdan aynan mana shu vazifaning qanday hal etilishiga bog'liqligi, buning uchun amaldagi huquqiy bazani xususiy mulk mafaatlarga moslashtirish, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirish, xususiy mulkdorlarning keng qatlami yaratishni eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab berdilar.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalashda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, ayniqsa, sanoat tarmoqlarida qo'llaniladigan zamonaviy laboratoriya jihozlari, oziq-ovqat sanoati sohasida foydalaniladigan zamonaviy texnologik liniyalarni ishlab chiqarish va bunday mahsulotlarni yetkazib berishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida biz olib borgan tahlil ishlari loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashga yetarlicha ma'lumotlar bera oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, ushbu loyiha bo'yicha bank tomonidan ham mustaqil ravishda tahlil ishlari olib borilsa-da, biroq yuqorida ta'kidlaganimizdek, tajriba va bilimlarning hali yetarli va mukammal emasligi kuzatuv va mustaqil tahlil jarayonida ko'rinib turdi. Shunday bo'lsa-da,

bunday loyihaning amalga oshirilishi davlat tomonidan kafolat berilishi ham asosiy sabab bo'lgan. Bundan tashqari, loyiha o'zini kelgusida oqlashga ko'proq yaqin ekanligi sezilib turibdi. Shu boisdan bank tomonidan ushbu loyihaning kreditlanishi amalga oshirilgan.

Loyihaning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, loyiha qisqa davr ichida o'zini to'liq qoplaydi va samarali faoliyat yurgizadi. Biroq loyihani baholash ishlari YuNIDO uslubiyoti asosida olib borilganligi loyihani to'liq baholashni keltirib chiqara oladi, deb ishonch hosil qilishimiz mumkin. Lekin bu uslubiyot barcha mamlakatlar uchun umumiy tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, unda har bir mamlakatning o'ziga xos alohida xususiyatlari e'tiborga olinmagan. Bundan tashqari, biz mustaqil tahlil ishlarida bank tomonidan qo'llanilgan tahlil usullaridan tashqari qo'shimcha tahlil usullarini tadbiq etganmiz.

Shunday ekan, banklarda ushbu uslubiyotdan foydalanilayotgan mamlakatning milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnik, geografik xususiyatlariga, tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush tarzi, mamlakatning iqtisodiy va intellektual qobiliyati va salohiyatiga, ijtimoiy ahvoliga, rivojlanish strategiyasi va investitsiya siyosatiga, tashqi aloqalari va milliy bozorining o'ziga xos tomonlariga qat'iy e'tibor berish juda muhim masala hisoblanadi. Shularni hisobga olganda, respublikamizda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

- ✓ hozirgi amaliyotda investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda bilim va tajribalarning to'liq egallanmaganligi va o'zlashtirilmaganligi;

- ✓ investitsiya loyihasi samaradorligini baholash ishlari faqat banklar va ayrim sanoqli tashkilotlar tomonidan olib borilishi, boshqa manfaatdor subyektlarning esa hali bu yangilikni qabul qila olishga mos bilim va tushunchalari yo'qligi va uquvsizligi;

✓ chet elda ishlab chiqilgan uslubiyotlardan ko‘r-ko‘rona foydalanishlik va o‘zimizning ichki va milliy xususiyatlarimiz kabilarga ko‘proq e‘tibor berilmasligi;

✓ xomashyoni yetkazib berish va mahsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarning to‘liq va haqiqiy olib borilmasligi;

✓ malakali va yosh mutaxassislarning yetishmasligi, ularga bo‘lgan biroz e‘tiborsizlik; ayrim loyihalarda haqiqiy bo‘lmagan, lekin yaxshi natijalar beruvchi raqam va ko‘rsatkichlarning ko‘rsatilishi;

✓ tahlil ishlarida bank mutaxassislarning o‘zlari ham ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yishi, tahlil dasturini yaxshi tushunmasligi va kelib chiqish sabablarini o‘zlari ham to‘liq bilmasligi va h.k.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshirish yuqoridagi muammolarni hal qilishlik bilan birga, boshqa masalalarni ham yechishni talab etadi. Shularning natijasi o‘laroq, biz investitsiya loyihalarning samaradorligini quyidagi takliflarni bajarish asosida ta‘minlash mumkin, deb hisoblaymiz:

✓ bizda investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning umumiy mexanizmini ishlab chiqish lozim;

✓ har bir bankda «Loyihalarni moliyalashtirish», «Loyihalar ekspertizasi», «Loyihalar monitoringi» kabi bo‘linmalarni ochish foydali bo‘lishi mumkin;

✓ beriladigan kreditlar uchun talab qilinadigan garov miqdorini kamaytirish zarur yoki bo‘lmasa kafolatlar tizimini yo‘lga qo‘yish lozim (masalan, davlat kafolatlari);

✓ banklarda loyihalarni moliyalashtirish, ekspertiza qilish ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni qayta o‘qitish bilan malakasini oshirish zarur;

✓ o‘quv yurtlarida bo‘lajak mutaxassislarning loyihalarini baholashga mo‘ljallangan turli uslubiy dasturlar bilan tanishish va ishlash tizimini yaratish lozim va h.k. Investitsiya loyihalari

samaradorligini baholashda, asosan, pul tushumlariga katta e'tibor qaratiladi.

Aslida esa ijobiy pul tushumlarini ta'minlashda pul chiqimlarining, iqtisod qilingan xarajatlar va kutilmagan xarajatlar hisobi muhim o'rni tutadi. Bunda loyiha bo'yicha pul oqimini rejalashtirishda unga ta'sir etuvchi omillarni oldindan hisobga olish lozim. Investitsiyalarning muqobil variantlarini ishlab chiqish ularning samaradorligini baholashdagi muammolarni yechishga imkon beradi.

Muqobil loyihalar ichida afzali deb topilgan investitsiya loyihasini amalga oshirish investor xarajatlarini samarali tashkil etish, investitsiya xarajatlarining tezroq qoplanishi va yuqori foyda olish imkonini ta'minlaydi. Investitsiya loyihasining hayotiylik davri ancha uzoq bo'lgan davrda investitsiya xarajatlarining qisqa vaqt ichida to'liq qoplanishi qolgan davr mobaynida loyihadan katta foyda olishga imkon beradi va investitsiyalarning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.


Investitsiya loyihalarining samaradorligi yuqori ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan reja (bashorat)larning haqiqiy bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Bu bashoratlarning hammasi yuqori sifatli, xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga va yuqori foyda asosida sotishga qaratilgan bo'ladi. Lekin loyihalarining texnologik tarkibi (ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi va uzoq davom etishi), loyiha quvvatining bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi va mahsulotni sotish jarayoni kabilarning loyiha samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olish zarur.

Odatda, obyektни ishga tushirishning birinchi bosqichining o'zidayoq to'liq loyiha quvvatiga erishishni rejalashtirgan investitsiya loyihalarining aksariyat qismi noreal hisoblanadi. Sababi, turli xil texnologik, ishlab chiqarish va tijorat qiyinchiliklari oqibatida (sotish hajmining tushib ketishi, xomashyo va ishchi kuchi ta'minotidagi nomuvofiqliklar va h.k.) loyihalar ishlab chiqilgan rejalariga mos kelmay qolishligi mumkin. Ayniqsa, bunday holat loyiha quvvatining

birinchi yilining o'zidayoq to'liq o'zlashtirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarida kuzatilishi mumkin. Chunki, aksariyat hollarda, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish ishlarida ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan loyiha rejasini ishlab chiqishda uni loyihaning to'liq quvvatiga erishishini investitsiya obyektni ishga tushirgan vaqtning uchinchi-to'rtinchi yillariga kelib, yirik va murakkab loyihalarda esa 4-7 yillar ichida o'zlashtirishga moslashtirishga harakat qilinadi. Odatda, bunday rejalashtirish soha, loyiha xususiyatlaridan, ishlab chiqarishning turlaridan, bozor holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi va mahsulotning uzluksiz va maksimum imkoniyatlar bilan sotilishiga qaratilgan bo'ladi. Loyihalardagi bu va boshqa jihatlar ular ichidan eng samaralisini tanlashda ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishi sababli to'g'ri qaror qabul qilish muammosi har doim dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan muammolarni iloji boricha tezroq hal etilishi kelajakda investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ishlarida o'zining ijobiy samaralarini beradi, deb hisoblaymiz.

Investitsiyalarni boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, bunda barcha omillarni hisobga olish lozim. Fikrimizcha investitsiyalarni boshqarish bu – qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish va resurslar bilan ta'minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazoratidir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish mumkin (3.2-rasm).




3.2-rasm. Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish⁸⁷

Davlat nuqtayi nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat, asosan, qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlashdan iborat. Korxona yoki alohida xo'jalik subyektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini takomillashtirishning mazkur yo'nalishlari va ularning tarkibiga kiruvchi usul, vosita, mezon va xususiyatlarini quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (3.3-rasm):

⁸⁷ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



3.3-rasm. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari⁸⁸

Iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan juda katta ishlarga qaramasdan hozirgacha iqtisodiyotimizda investitsion muhitga salbiy

⁸⁸ Nazariy ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

ta'sir qiladigan va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qarshilik qiladigan ba'zi muammolar kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Shu kabi muammo va kamchiliklarga quyidagilarni kiritsak xato qilmagan bo'lamiz:

- ✓ ayrim hududlarda investitsiyalardan samarali foydalanilmayotgani;
- ✓ hududlar bo'yicha investitsiyalarning joylashuviga katta e'tibor qaratilmayotganligi;
- ✓ barcha sohalarda davlat ulushi ko'pligi;
- ✓ kredit berish tizimi takomillashmagani va baland kredit foiz stavkalari;
- ✓ soliq stavkalarining balandligi;
- ✓ olingan investitsiya resurslaridan mintaqaviy va korporativ boshqaruv darajalarida samarasiz foydalanilayotganligi;
- ✓ investitsion menejmentning boshqaruvning barcha darajalaridagi past sifati;
- ✓ mulkchilik huquqining belgilanmaganligi, investorlarning ham, investitsiyalash obyektlari korxonalarining ham moliyaviy ahvolidan past darajasi sababli qo'shilgan mablag'larni qaytarib berilmaslik ehtimoliga bog'liq bo'lgan yuqori investitsiya xatarlari;
- ✓ davlatning moliyaviy va soliq siyosatidagi o'zgarishlarning kutilmagan yuqori darajasi va juda tez fursat ichida o'zgarishi;
- ✓ korporativ investitsiya bitimlarining (konsessiyalar, davlat-xususiy hamkorligining) rivojlanmaganligi;
- ✓ investorlarga qo'shimcha majburiyatlar orqali noqonuniy noqulayliklar keltirib chiqarish;
- ✓ monopoliya darajasi balandligi va bozorlarga yangi tadbirkorning kirib borishidagi turli to'siqlar;
- ✓ nazorat organlarini investorlarning xo'jalik faoliyatiga asosiz aralashuvlari;

- ✓ investorlarga materiallar, uskunalar, ularning butlovchi qismlari hamda ular narxлари va sifati bo'yicha manfaatdor bo'lmagan boshqa tovarlarni sotib olish yuzasidan majburiyatlar yuklash;

- ✓ yangi tashkil etilayotgan korxonalarda qarzдорlik yuklamalarini oshirish;

- ✓ soliq va bojxona soliqlari, shuningdek, davlat kafolatlari berilishining noaniq tizimi;

- ✓ inflyatsiya darajasining balandligi;

- ✓ iqtisodiyot tarmoq va sohalarida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega, o'z ishiga mas'uliyatli va jonkuyar kadrlarning yetishmasligi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammo va kamchiliklar hozirgi kunda mamlakatimizda investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan omillar hisoblanadi.

Bu kabi muammolarni oldini olish va kamchiliklarni bartaraf etish orqali mamlakatimizda investitsion muhitni yanada takomillash-tirishga, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga va eng muhimi mamlakatimizga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsi-yalar hajmini oshirishga va investorlarni mamlakatimizga ko'proq jalb qilishga xizmat qiladi. Bu muammolarni yechimiga va kamchiliklar-ning oldini olishga qaratilgan quyidagi takliflarni beramiz:

- ✓ inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiymat o'sishiga ta'sirini kamaytirish;

- ✓ xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga yanada qulay imkoniyat va imtiyozlar yaratish;

- ✓ investitsiyalarni hududlar bo'yicha real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda to'g'ri taqsimlash mexanizmini yanada takomil-lashtirish;

- ✓ iqtisodiyot tarmoq va sohalarida kadrlar tayyorlash mexa-nizmini yanada takomillashtirish;

- ✓ erkin eksport zonalarini amaliyotini o'rganish va ularni yurti-mizda joriy qilishga erishish;

✓ “inflyatsion targetlash” rejimini o‘rganish va uni mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo‘llash va shu orqali inflatsiya darajasini pasaytirishga erishish;

✓ soliq yukini kamaytirish ishlarini olib borish;

✓ bojxona tizimini yanada takomillashtirish;

✓ monopoliyalarni tartibga solish tizimini takomillashtirish va investorlarga milliy bozorlarimizga erkin kirib kelishini ta‘minlash;

✓ nazorat organlarini investorlarning xo‘jalik faoliyatiga aralashtirmaslik;

✓ erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari sonini ko‘paytirish;

✓ har bir sohada marketing va menejmentning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda sohalarda menejment va marketingni rivojlantirish;

✓ investitsiyalardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish;

✓ investorlarni kelajakda mamlakatimizga kiritgan investitsiyasidan foyda ola olishiga ishonтира olish;

✓ milliy mahsulotlarimiz raqobatbardoshligini oshirish;

✓ ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

✓ iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;

✓ iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash;

✓ “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

✓ valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

✓ iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash;

✓ “raqamli iqtisodiyot”ga o‘tish ishlarini jadallashtirish hamda barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bajarilayotgan ish tezligini va sifatini oshirish va vaqtini qisqartirish, masofadan turib ish boshqarish tizimlarini joriy qilish va barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Fikrimizcha, yuqoridagi takliflar mamlakatimizdagi investitsion muhitga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan muammo yechim bo’la oladi hamda kamchiliklarning oldini ola oladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar muhim rol o‘ynar ekan, investitsiyalarni vujudga keltirishga har qanday sharoit va muhitni yaratib berish talab etiladi. Bu sharoit va muhit yaratilgandagina mamlakatda investitsiya hajmi oshadi va uning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri ortadi. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta’minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish istiqbollari deb nomlangan uchinchi bobda asosan milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishning istiqbolli yo’nalishlari masalalari o’rganilgan.

Bobning birinchi rejasidan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo’yicha hozirgacha mavjud bo’lgan muammolar va ularni hal qilish qilish bo’yicha ko’rilgan chora-tadbirlar o’rin olgan. Bunda jahon ekspertlarining mamlakatimiz investitsion salohiyati to’g’risida bildirgan fikrlari ham inobatga olingan. Mavjud muammolar ijobiy hal qilinayotganligi va bu boradagi ishlar hali davom etishi zarurligiga misollar keltirib o’tilgan.

Ikkinchi rejada xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi istiqbolli yo’nalishlar va ularni amaliyotga qo’llash bo’yicha vazifalar o’rganilgan. Shu asosda muallif tomonidan ham ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bunda qabul qilingan “Yangi O’zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” umumiy yo’nalishlari ham o’rganilib, ulardan xorijiy inves-

titsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish borasidagi vazifalar ham keltirib o‘tilgan.

3.2. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘nalishlari


Mamlakatimizni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, faol investitsiya siyosatini yuritish, innovatsion rivojlanish, aholi farovonligini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, hozirgi kunda bu sohalarida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada iqtisodiyotni rivojlantirishning bir-lamchi omili sifatida faol investitsiya siyosatiga e‘tibor qaratilmoqda. Jahon tajribasiga e‘tibor bersak, hozirgi kunda iqtisodiyotini rivoj-lantirishning eng samarali va foydali yo‘li bu iqtisodiyotga ko‘roq investitsiya jalb qilish sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratishga, inves-torlarga har tomonlama imtiyozlar berish va shu orqali iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga doir ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda va investitsiyalar hajmi yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Endigi vazifa qulay, har tomonlama takomillashgan investitsiya muhitini mamla-katimizda yaratish hamda jalb qilinayotgan investitsiyalardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish va jalb qilingan inves-titsiyalardan hududlar bo‘yicha taqsimlanish jarayonini takomillash-tirish, har bir sohaga investitsiyalar jalb qilgan holda sohalaridagi kamchliklarni oldini olish va sohani rivijlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish kabilardir.

Mamlakatimizga jalb qilinadigan investitsiyalarni prognozlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak yaqin yillarda investitsiya jalb qilish hajmi

sezilarli darajada ijobiy o'sish sur'atlariga erishishini ko'rishimiz mumkin.

Investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishda rivojlangan sanoatlashgan mamlakatlarda investitsiya siyosatini amalga oshirishda quyidagi uchta yo'nalishga alohida e'tibor bilan qaraladi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Rivojlangan mamlakatlarning investitsiya siyosati yo'nalishlari⁸⁹

Ayniqsa, e'tiborli jihati Koreya Respublikasining investitsiya strategiyasida namoyon bo'ladi. Ushbu mamlakat xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda shunday siyosat olib borganki, bunda Janubiy Koreyaga boshqa rivojlangan mamlakatlardan, xususan AQSH va Yaponiyadan investitsiyalar jalb qilishda ulardagi samarali menejment usullari va ishlab chiqarish texnologiyasini o'ziga tatbiq qilishga intilgan.

Malayziyaning investitsiya siyosatida esa ustuvor jihat investitsiyalarni qayta ishlash sanoatiga yo'naltirish bo'lib hisoblanadi⁹⁰.

Ushbu mamlakatda investitsiyalarni ilmtalab va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohalariga, jumladan, axborot-

⁸⁹ Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁹⁰ <http://www.ved.gov.ru/articles> sayti ma'lumotlari asosida.

kommunikatsiya texnologiyalari, nanotexnologiyalar, yuqori malakali xizmatlar kabi sohalarga yo'naltirilmoqda.

Xususiy sektorning o'zida investitsiyalarning yillik o'rtacha o'sishi 11-12 foizni tashkil etmoqda. Ularning umumiy investitsiyalar hajmidagi salmog'i 50 foizdan ortiq bo'lib, so'nggi besh yil mobaynida xususiy investitsiyalarning umumiy miqdori 95 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan.

Malayziyada sanoatni rivojlantirishning bosh rejasiga asosan xususiy investitsiyalar sohasida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- ✓ xususiy investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish va ilg'or texnologik tarmoqlarni rivojlantirish;

- ✓ sanoatning ustuvor tarmoqlari rivolanishiga ko'maklashish;

- ✓ sanoatga ilg'or texnologiyalarni, jumladan, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, simsiz uzatish texnologiyalari, mikroelektromexanik tizimlari, lazer texnologiyalarini tatbiq etishni yanada kengaytirish;

- ✓ sanoatning o'sishida mehnat unumdorligi omilining rolini oshirish;

- ✓ milliy sanoatning xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;

- ✓ ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yanada rivojlantirish va ularni sanoatga tatbiq etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- ✓ iqtisodiy salohiyat va raqobatdoshlikni mustahkamlash maqsadida strategik hamkorlik va markazlashuvni rag'batlantirish.

Shu bilan birga Malayziyada investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida turli soliq imtiyozlari joriy qilingan bo'lib, bunda investitsiya natijasida olingan foydaning faqat 30 foizi dastlabki 5 yil davomida soliqqa tortiladi. Ayniqsa, hududlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida nisbatan yaxshi rivojlanmagan

shtatlarda faoliyat ko'rsatuvchi investorlar foyda solig'idan dastlabki 5 yil davomida to'liq ozod qilinadi.

Yaponiyada ham investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi yuksak texnologiyalarga asoslangan va resurs tejovchi ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Umuman olganda, Yaponiyaning rivojlanishi aynan ilmtalab sohalarning rivojlantirilishi hamda samarali ishlab chiqarish texnikalarining tatbiq etilishiga tayanadi.

Yaponiyaning dastlabki rivojlanish davri tajribasi shuni ko'rsatadiki, nafaqat yangilik yaratish uchun kapital zarur, balki kapitaldan foydalanish uchun ham yangilik zarur bo'ladi. Ushbu ikkala yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldirib turadi. Bu holat shunday izohlanadi, ya'ni yangilik yaratish uchun muayyan kapital zarur bo'lsa, mavjud kapitaldan samarali foydalanish uchun yangilik kiritilishi taqozo qilinadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi yana bir ahamiyatli jihat investitsiya jarayonida yirik transmilliy kompaniyalarning faol ishtiroki, Moliya bozorining yuqori rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar muomalasining keng tarqalganligi, turli jamg'armalarning investitsiya faoliyatiga jalb qilish mexanizmining yuqori darajada tarkib topganligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar investitsiya faoliyatida boy tajriba to'plangan bo'lib, undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish va investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ayrim chet el mamlakatlaridagi investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari mamlakatimizga tatbiq qilish muayyan ijobiy natijalarni bermasdan qolmaydi. Ayniqsa, Koreya Respublikasi investitsiya siyosatining tajribasi o'zining ahamiyatligi bilan ajralib turadi.

Bu borada mamlakatimizda ham investitsiya siyosatining muhim ustuvorliklaridan biri aynan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uzoq muddatli loyihalar asosida ilg'or texnika va texnologiyalar kiritishga qaratilgan.

Shu bilan birga, investitsiyalardan samarali foydalanishda bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan tanishganda, investitsiyalar asosan ilg'or texnologiyalarni joriy etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, resurs tejovchi va ekologik talofati kam bo'lgan mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi sohalariga yo'naltirilayotganining guvohi bo'lamiz.

Uchinchi bobi to'laqonlicha yangiliklar va ularni amaliyotga qo'llashga bog'langan. Unga ko'ra xorij tajribasini o'rgangan holda iqtisodiyotda ichki investitsiya hajmini ko'paytirish, keng jalb qilish bo'yicha fikr yuritilgan.

Bobning birinchi rejasi investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi rejada esa, iqtisodiyotga ichki investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo'llari va xorij tajribasidan foydalanish masalalari yoritilgan.

Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini boshqarish bo'yicha boy tajribalar to'plangan. Mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'sishi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, ijtimoiy infratuzilma rivoji va mavjud muam-molarning bartaraf etilishi, aynan, investitsiya siyosatining hamda loyihalarning samarali boshqaruviga bog'liqdir.

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida investitsiyalarni boshqarish, asosan, asosiy kapitalni yangilash va modernizatsiyalashga qaratildi. Yaponiyada iqtisodiyotni tiklash ishlab chiqarish tarmoqlari bandligini oshira borish hamda ularni qayta qurishga mablag'lar ajratishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshirildi.

Xorijiy texnologiyalarni qarzga olish evaziga eskirgan dastgoh va uskunalar ishlab chiqarishdan olib tashlandi va shu yo'l bilan ishlab

chiqarish tarmoqlari yangilanib, kapital-resurslar jamg'armasiga erishildi.

Davlat mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta'minlash va uning iqtisodiy hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashni rag'batlantirish va ularni samarali boshqarish siyosatini amalga oshirdi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz negizida tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini yangicha tashkil etish, ulardagi hissbay ishtirok etish, ya'ni aksiyalar ulushiga asosan tomonlarning qaror qabul qilishida ishtirok etish, eng asosiysi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investorlarni jalb etishda turli usullarning qo'llanilishi o'zining samarali mevasini hozirning o'zidanoq bermoqda. Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston o'ziga xos investitsion iqlim yarata oldi hamda bunga mamlakatning resurslarga boy ekanligi va ularni qazib chiqarish, qayta ishlash borasida korxonalarni tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash bo'yicha berilayotgan keng imkoniyatlar xorijlik investorlarni kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo'yicha investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda:

- fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qilinadigan investitsiya qo'yilmalari miqdori va sifatini oshirish;
- bazaviy innovatsiyalarni egallashga asoslangan yo'naltirilgan innovatsiya-investitsiya strategiyalarini rag'batlantirish;

– davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi talab etiladigan mavjud ishlab chiqarishlarning texnologik darajalarini, ilmiy imkoniyatlarini, ixtirolarni o‘rganish va baholash;

– qulay ishbilarmonlik muhitining shakllantirilishini jadallash-tirish, chunki u O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmi samaradorligini oshirish lozim.

Fikrimizcha, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta‘minlash maqsadga muvofiq:

– investorlarning qo‘yilmalarini davlat tomonidan sug‘urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy plat-formalarni shakllatirish;

– hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq pereferensiyalarini, hududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘shida keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;

– xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qayta qurish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ilg‘or texno-logiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo‘naltirish vazifalarini amaliy ijrosini ta‘minlash;

– investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish,

– investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalashda raqamli investitsion xizmatlar tizimini shakllantirish;

– investitsiya loyihalari uchun xalqaro texnologiyalar transfertini ta‘minlovchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish, investitsion loyihalarni boshqarishning integrallashgan tizimini joriy etishda loyiha risklarini samarali boshqarish tizimini optimallashtirish va boshqalar.

“O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi” — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlandi.

2025-yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi – iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi. Strategiyaning asosiy vazifalari uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha: investitsiya muhitini yaxshilash, ichki investitsiya manbalarini kengaytirish va investitsiya manbalarining samaradorligini oshirish, samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish aniqlangan.

2025-yilgacha investitsiyalarning asosiy manbalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik, davlat investitsiyalari va korporativ qimmatli qog‘ozlar sarmoyalari bo‘ladi. 2019–2025-yillarda amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli yangi investitsiya loyihalari doirasida 1002,5 milliard so‘mdan ortiq markazlashtirilmagan investitsiyalarni o‘zlashtirishi ko‘zda tutimoqda. Shuningdek, yaqin 30 foizi korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018-yildagi 30,5 foizdan 2025-yilda 37,5 foizga o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, 2025-yilda jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori 11 milliard AQSh dollarga yetkaziladi, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 1,6 milliard AQSh dollarni tashkil qilgan.

Investitsion siyosat strategiyasining amalga oshirilishining natijasi respublikaning hududiy va sanoat rivojlanishini har tomonlama ta‘minlash, shuningdek, mahsulotlarning xom ashyodan tayyor mahsu-

lotgacha bo'lgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini mustahkamlash va yangi hududlararo va tarmoqlararo aloqalarni shakllantirish, sohalar, hududlar, davlat organlari va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'ladi.

XULOSA

Iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishga doir juda ko‘plab islohotlar va amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlar va amaliy ishlar natijasi sifatida mamlakatimizda makroiqtisodiy o‘shish sur‘atlari oshib, makroiqtisodiy barqarorlik ta‘minlanib kelmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim sharti bo‘lgan faol investitsiya siyosati amalga oshirilmoqda. Buning natijasini esa mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmining muttasil o‘shib borayotgani orqali ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, eng avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdir. Jahon tajribasidan shuni ko‘rishimiz mumkinki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa va o‘ziga xorijiy investitsiyalarni ko‘p jalb qilgan bo‘lsa o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Jahon tajribasidan ma‘lumki, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya siyosatini olib borish eng oqilona va samarali yo‘l hisoblanadi.

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki investitsiya orqali iqtisodiyotda yangi korxonalar barpo etiladi, ishlab chiqarish kengayadi, iqtisodiyotga turli innovatsion g‘oyalar kirib keladi, iqtisodiyot qaytadan qurollanadi, mamlakatda aholi farovonligi oshadi, bo‘sh ish o‘rinlari yaratiladi va shu orqali mamlakatda ishsizlik darajasi keskin kamayadi, mamlakatda urbanizatsiya darajasi oshadi, mamlakat hududlarida infratuzilmasi rivojlanadi, korxonalar har tomonlama jahon standartlari darajasida modernizatsiya va diversifikatsiya qilinadi.

Investitsiya yuqorida sanab o‘tilgan sohalarga ta‘siri orqali aholining daromadlari oshishiga va aholi turmush darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Investitsiya jalb qilish oqimini ko‘paytirish hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan

biri bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya jalb qilish hajmini oshirish uchun, eng avvalo, investorlarni kiritgan investitsiyasidan foyda ola olishiga ishonтира olish kerak va haqiqatda ham, investor o‘zi kiritgan sarmoyasidan samarali foyda ola olishiga shart-sharoitlar yaratib berish muhim hisoblanadi. Bu sohadagi muammo va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini oshira olamiz. Bu yo‘lda mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarga katta e‘tibor qaratilishini talab qiladi. Bunda, bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘paytirish va ularning samaradorligini oshirish muhimdir. Bilamizki, mamlakatimizda ham investitsiya siyosatiga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda.

Buning natijasida mamlakatimizning investitsion jozibadorligi yildan yilga oshib, investitsiya kirib kelish hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Buning isbotida har bir sohada bo‘layotgan o‘zgarishlarni keltirishimiz mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda investitsiya hajmini oshirish mamlakatimizda investitsion muhitni takomillashtirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish zaruratini tug‘diradi va bu ishlarni izchil davom ettirgan holda mamlakatimizda tez fursatlarda yuqori makroiqtisodiy o‘sish sur‘atlariga va iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish kabi maqsadlariga erishish bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifadir. Chunki mamlakatning har qanday sohasini rivojlantirish bevosita iqtisodiyotga bog‘liq hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish, ulardan foydalanishning hozirgi holati, samarali foydalanish muammolari va ularni bartaraf etish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosalardan asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishning mukammal huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi. Amaliyotda investorlar, shu jumladan, chet el inves-

titsiyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatiga ayrim hollarda asossiz aralashuv amaliyoti mavjud va bu ularning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan investorlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslarini iqtisodiy islohotlar jarayonidagi o'zgarishlarga mos ravishda takomillashtirib borish va ularni amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim;

2) iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan investitsiyalar ulushining ortib borishi makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotni texnik-texnologik jihatdan yangilash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratmoqda;

3) respublika miqyosida umumiy holatda samarali investitsiya siyosati olib borilayotgani bilan bir qatorda iqtisodiyotda jalb qilingan investitsiyalar taqsimotida "mintaqaviy notekis taqsimlash" amaliyoti, ya'ni investitsiyalarni asosan yirik shaharlar va ayrim viloyatlarga kiritish holatlari mavjud. ba'zi hududlarda investitsiyalar tanqisligi kabi dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda.

Investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalarni ko'p mehnat talab qilinadigan tarmoq va sohalarga, xususan qayta ishlash, to'qimachilik, kimyo sanoati, elektronika yo'nalishlariga jalb etish ustuvor masalalardan hisoblanadi.

2) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni hududlarga jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlari investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha hududlarning uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga tatbiq etishlari lozim.

3) respublika investitsiya siyosati va investitsion dasturlarini mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va prognozlari bilan uzviy bog‘liqlikda ishlab chiqish zarur. Investitsiyalarni yo‘naltirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanoat va qishloq xo‘jaligida eskirgan asosiy vositalarni yangilash, texnik-texnologik jihatdan modernizatsiyalash va eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlash, qadoqlash va tara xo‘jaligini rivojlantirishdan iborat.

4) milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalarni yo‘naltirishda iqtisodiyotning mikro va makro darajasida mutanosib va muvozanatli rivojlanishiga asos bo‘ladigan shart-sharoitlarni vujudga keltirishga alohida e‘tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz.

5) davlat nuqtayi nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;

6) tarmoq nuqtayi nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;

7) alohida xo‘jalik subyektlari nuqtayi nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Bunda davlat nuqtayi nazaridan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Davlat, asosan, qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi.

Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaaning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Investitsiya faoliyatini boshqarishdagi muvaffaqiyatsizlikning bosh sababi investitsiya strategiyasining to‘g‘ri belgilab olinmasligi yoki uning ta‘minlanmasligi hisoblanadi. Shu sababdan investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini ta‘minlash investitsiyalar boshqaruvining asosiy vazifasi bo‘lishi, investitsiya strategiyasini ishlab chiqish aniq bir faoliyat bo‘yicha olib boriladigan chuqur marketing tadqiqotlari natijalariga asoslanishi lozim. Bunda marketing tadqiqotlarini olib boruvchi malakali mutaxassisning bo‘lishi

hamda tadqiqotlarni olib borishga xizmat qiluvchi yetarli va aniq ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish zarur.

1. Investitsiya loyihasi boshqaruvi bo'yicha yuqori malakali va tajribali menejerlarga topshirilishi lozim. Ularning investitsiya loyihasi strategiyasining amalga oshirilishi yo'llarini aniqlash san'atiga, unga erishishda ijodiy yondashuv mahoratiga ega bo'lishi loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim garovi hisoblanadi.

2. Investitsiya faoliyatini boshqarishda monitoring olib borish maqsadga muvofiqdir. Investitsiya faoliyati monitoringi prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam o'rganib, nazorat va tahlil qilib borish, mavjud kamchiliklarni aniqlash imkonini berishi sabab ahamiyati yuqori baholanishi lozim.

3. Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiquvchi va ularga egalik qiluvchi xorijiy tashkilotlarni aniqlash, ularni modernizatsiyalash, mahalliyashtirish va mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish faoliyatlar bo'yicha strategik sherik sifatida jalb qilish zarur. Bu esa investitsiya faoliyatini samarali boshqarish imkonini beradi.

3. Investitsiya faoliyatini kompleks boshqarish bo'yicha mas'ul davlat muassasalarining (Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Investitsiyalar departamenti va boshq.) javobgarligini kuchaytirish, unda ishlayotgan xodimlarning investitsiyalarni boshqarish uslubiyoti bo'yicha bilim, malaka va tajribalarini yanada oshirish kerak.

Investitsiyalarni jalb etish va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar:

1. Investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi investitsiyalarni ko'proq iqtisodiyotning real sektoriga, ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb etishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bunday amaliyot mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yalpi ichki mahsulotni barqaror sur'atlarda o'stirishning moddiy asosini yaratadi.

Kapital qurilish, montaj va boshqa nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etish zamonaviy ishlab chiqarishning mustahkam zamini yaratilganidan keyin amalga oshirishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

2. Hududiy investitsiya siyosatini hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanish darajalarini bir-biriga yaqinlashtirish, resurslardan kompleks foydalanish, hududiy mehnat, mineral resurslardan oqilona foydalanish hamda keskin urbanizatsiyalashuvning oldini olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Hududlarning investitsiya salohiyatini namoyon etish, unda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari va oshirilishi mumkin bo'lgan investitsiya imkoniyatlari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish zarur. Ma'lumotlar bazasini ichki va tashqi investorlarga yetkazish hamda investitsiyalash jarayonlariga jalb qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, jahon axborot tizimiga ulangan holda PR-dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak.

3. Milliy xo'jalikning ijtimoiy, siyosiy, ekologik va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtalarini aniqlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ularni shakllantirishda ichki va tashqi investorlarning investitsiya loyihalari bo'yicha takliflarini strategik ahamiyatga qarab yig'ish, tahlil qilish va tanlab olish, guruhlariga bo'lish va amalga oshirish muddatlari bo'yicha taqsimlash lozim.

4. Moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda davlatning iqtisodiy, investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini tanlashning reyting mexanizmini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur

tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida, kelgusida mam-lakatimizda investitsion siyosatni to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son Qonuni.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5233-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2021-y., 07/ 21/ 5233/ 0822-son.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 09-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-y., 06/20/6042/1190-son.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4937-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2020-y., 07/20/4937/1672-son.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5643-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.10.2019-y., 06/19/5848/3901-son.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.03.2023-y., 06/23/42/0177-son.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5717-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,; 18.08.2020-y., 06/20/6042/1190-son.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi “Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 616-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2021-y., 09/ 21/ 402/ 0618-son.

1.13. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi “Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3794-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.06.2018-y., 07/18/3794/1378-son.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yax-

shilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4434-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi “Xorijiy investitsiyalari va kreditlarini jalb qilish va ularni jalb qilish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-927-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.01.2019-y., 06/19/5624/2471-son.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-sonli farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi,; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16-son Qarori.

1.23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi “Xorijiy investorlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 547-son Qarori.

1.24. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston ” NMIU, 2017.

1.25. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston ” NMIU, 2017.

1.26. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston , 2017.

1.27. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston ” NMIU, 2017.

1.28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022-yil// <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Rahimova N.J., Tursunova M.R. “O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish masalalari va tashqi iqtisodiy faoliyatda tutgan o‘rni”// Международный научно образовательный электронный журнал «Образование и наука в ххи веке». Выпуск №21 (том 3) (декабр, 2021)

2.2. Rahimova N.J. “O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish masalalari va tashqi iqtisodiy faoliyatda tutgan o‘rni”. UzBridge elektron jurnali. 1-son. 3-may 2022-y.

2.3. Rahimova N.J., O‘roqov U.Y. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati. Scientific journal “Research and education” Vol.1.No.3.2022

2.4. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching” 2022/4. International scientific conference. 30-mart 2022.

2.5. Sobirov A. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T., 2009.

2.6. Турсунова М.Р.: “Роль и значение иностранных инвестиций в экономике Узбекистан”-«Умидли кимёгарлар-2020», Труды Научно-технической конференции молодых ученых: докторантов, аспирантов, научных сотрудников и студентов бакалавриата и магистратуры. Ташкент, 2020 ТХТИ.

2.7. Турсунова М.Р., Ли И.В.: “Значение и развитие новых зарубежных инвестиций в экономике Республики Узбекистан”-Республиканская научно-техническая конференция. Формирование инновационного мышления студентов химико технологического направления. – Ташкент, 2018.

2.8. Tursunova M.R, Abduqodirova N.A. “Mamlakatimiz iqtisodiyotiga tashqi investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo‘llari”. Yosh olimlar, magistrantlar va bakalavriat talabalarini to‘plami. – Toshkent, 2020, TKTI.

2.9. Xaydarov N. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investision faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – T., 2003.

2.10. Xidirov N.G‘. “Investitsion muhitni shakllantirishda investitsion siyosatning ahamiyati”. “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining konseptual asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-

sharoitlari” Respublika oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013.

2.11. Xidirov N.G‘. “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda chet el investitsiyalarini soliq mexanizmi orqali tartibga solish yo‘nalishlari”. “O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda moliyaviy siyosatning o‘rni” mavzusidagi turdosh oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2013.

2.12. Xidirov N.G‘. Sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Ph.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – T., 2021.

2.13. Elvira Sojli. “The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States” In Institutional Investors in Global Capital Markets. Publis’hed online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com

2.14. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of Yeconomic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9;

2.15. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Yevaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; <https://www.sciencedirect.com>

2.16. Kazushi Ohkawa, Katsuo Otsuka – Growth Mechanism of Developing Economies Investment, Productivity – Study guide/International development center of Japan. 1908. 385 pages.

2.17. Butayev J. Milliy fond bozori rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T. 24. – №. 2. – C. 250-255.

2.18. Shomirov PhD A. The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects

//International Finance and Accounting. – 2021. – T. 2021. – №. 1. – C. 19.

2.19. Abdullayevich N. I. The Impact of Attracting Foreign Direct Investment on Economic Development //Science Promotion. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 14-19.

2.20. Murtazaevich K. S. The Role of Foreign Direct Investment in the Socio-Economic Development of the Country //Global Scientific Review. – 2023. – T. 19. – C. 17-24.

2.21. Shomirov A. A. Issues of using the ipo mechanism in the investment activities of joint-stock companies //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.

2.22. Butayev J. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 86-88.\

2.23. Murtazaevich K. S. Improving Foreign Investment Insurance in Uzbekistan //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 20. – C. 68-79.

2.24. Aminova N. U. Development of foreign economic activities in the republic of uzbekistan through attracting foreign investment //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 8. – C. 216-221.

2.25. Yuldasheva U. A. et al. Possibilities of using the experience of advanced foreign countries in determining and analyzing the tax potential of regions //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 2. – C. 17-21.

2.26. Aminova N. Investitsiya loyihalarini islom moliyasi doirasida fintech orqali moliyalashtirish istiqbollari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 193-200.

2.27. Hoshimov, Jahongir. “Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari”. “Milliy iqtisodiyotni isloh

qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to ‘plami. (2023): 410-412.

2.28. Ataniyazov J. X., Karimbekova A. R. Xorijiy investitsiyalar o‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining omili sifatida // scholar. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 4-9.

2.29. Sugahara S., Ochilov B. The Experience of The Japanese State in Increasing Investment Activity in Uzbekistan. – 2023.

2.30. Khatri P. et al. Efficient computation for task offloading in 6G mobile computing systems //International Journal of Data Science and Analytics. – 2024. – C. 1-19.

2.31. Khoshimov J. Overseas experience in the development of the life insurance industry //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 20. – C. 65-69.

2.32. Omonov S., Ochilov B. Increasing investment attractiveness in attracting direct foreign investment //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 2. – C. 26.

2.33. Hoshimov J. investitsion muhit jozibadorligini oshirishda xitoy va singapur tajribasi // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – C. 369-373.

2.34. Bobirjon A., Bobur O. Investment Analysis and Risk Prevention Mechanisms //The Peerian Journal. – 2023. – Т. 25. – C. 31.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редакции Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 2-часть, 1995., 281-стр.

3.2. Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”: Учебное пособие для вузов. – М.: Юнити-дана, 2000. 148-149.

3.3. Imomov X.X.: Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, o‘quv qo‘llanma. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

3.4. Капитенко В.В. Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. – М.: «Издательство Приор».

3.5. Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник. – СПб.: “Михайлова В.А”, 2000.

3.6. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: учеб.пособие.- М.:“ИНФРА-М”, 2009.

3.7. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010.

3.8. Mamatov B.S., Xojamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014.

3.9. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Олдерогге Н.Г. “Инвестиционно-строительный инжиниринг”. Учеб.пособие. – М.: Елима, 2009.

3.10. Nosirov E.I., Asomxodjayeva Sh.Sh., Aliqulov M.S. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.

3.11. Nosirov E.I., Mamatov B.S., Shoislomova N.Q., Sharifxodjayeva K.U. Investitsiya risklarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya”, 2011.

3.12. Nosirov E.I., Asomxodjayeva Sh.Sh. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 2-qism. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.

3.13. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. -4-е изд. – М.:”Дашков и К0”, 2006.

3.14. Роберт С.ПИНДАЙК, Дениел Л. Рубинфелд микроэкономика, калифорнийский университет, беркли, пер. с англ., (Серия «Зарубежный экономический учебник») – М.: Издательство Дело.

3.15. Toshov O. “Investitsion faoliyatni moliyalashtirish”. – T.: “Akademnashr”, 2012. Zoyirov I.S., Asomxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.

3.16. Tursunova M.R. Xalqaro menejement. O‘quv qo‘llanma. – Iqtisodiyot dunyosi, 2021.

3.17. Vahobov A.V., Jumaev N, Burxanov U. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik /Mual. A.Vahobov. – T.: “Sharq”, 2003.

3.18. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010.

3.19. G‘ozibekov D.G‘, Nosirov E. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish.Risola. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007.

3.20. G‘ozibekov D. G‘, Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya”, 2003.

IV. Internet saytlari

4.1. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;

4.2. www.imv.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi;

4.3. www.lex.uz - O‘R qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi;

4.4. www.publicfinance.uz - O‘zbekistonda budjet islohotlari loyihasi;

4.5. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi;

4.6. www.ziyonet.uz - O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i;

4.7. www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi;

4.8. www.sciencedirectassets.com - Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazalari;

4.9. www.miit.uz - O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;

4.10. www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.

Izoh va qaydlar uchun

Izoh va qaydlar uchun

**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o‘g‘li,
Butayev Javlonbek Inatillo o‘g‘li**

**IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB
ETISHDA MAMLAKAT INVESTITSION JOZIBADORLIGI:
NAZARIYA VA AMALIYOT
(Monografiya)**

Muharrir	Asqarjon Samadov
Texnik muharrir	Zakir ALIBEKOV
Musahhih	Sherali RUSTAMOV
Dizayner-sahifalovchi	Iskandar ISLAMOV

“Ma’rifat-print-media MCHJ noshirlik faoliyati” 01.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi AOKA
tomonidan №X-25162 reestr raqami bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: № 086717

“Ilm-ma’rifat” nashriyoti.

Manzil: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Kumushkon” ko‘chasi,
26-uy.

Murojaat uchun telefon: 937184007. Telegram manzil: @yitj_77

Topshirildi 2024-yil 5-mart.

Bosishga 2024-yil 5-mart ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/8. “Times New Roman” garniturası.

Ofset bosma usulida ofset qog‘ozida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 14

Adadi 50 nusxa



ISBN 978-9943-6088-8-7



9 789943 608887

**IQTISODIYOTGA XORIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA MAMLAKAT
INVESTITSION JOZIBADORLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT**